

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIYVA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI**  
**IJTIMOYIY-IQTISODIY FAKULTETI**

**Ijtimoiy ish kafedrası**  
**“Ijtimoiy ish”yo’nalishi**  
13.464-guruh bitiruvchisi  
Nematjonova Sadoqatning

**“Yoshlarni mehnat bozoriga tayyorlash yo’llari va  
vositalari” mavzusidagi**

**BITIRUV**  
**MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar:** F.Turg’unboyev  
“Ijtimoiy ish” kafedrası dotsenti,  
falfafa fanlari doktori.

**Farg’ona – 2017yil**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>I-BOB. Mehnat bozorining shakllanish jarayoni va uni rivojlantirish yo'llari.....</b>	<b>7</b>
1.1. Mehnat bozori tushunchasi va asosiy hususiyatlari.....	7
1.2. Yoshlar mehnat bozorining shakllanishi.....	15
<b>II BOB. O'ZBEKISTONDA YOSHLAR MEHNAT BOZORINING SHAKLLANISH YO'LLARI.....</b>	<b>26</b>
2.1. Mustaqillik va erkin mehnat bozori.....	26
2.2. Yoshlarni mehnat bozoriga tayyorlashning asosiy yo'llari va vositala.....	36
<b>XULOSA.....</b>	<b>48</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>50</b>
<b>ILOVALAR.....</b>	<b>56</b>

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichida yoshlarning ish bilan bandlik muammosi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu ko‘p jihatdan O‘zbekiston aholisining tarkibiga ko‘ra yoshlar mamlakati qatoriga kirishi bilan izohlanadi. Respublika aholisining o‘rtacha yoshi bugungi kunda 27 yoshni tashkil etadi.

Mamlakatimizning 1-Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek: “Ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha mintaqaviy dasturlarning amalga oshirilishi natijasida 2013-yilda qariyb 970 ming kishi ish bilan ta’minlandi. Bu ish o‘rinlarining 60,3 foizdan ortig‘i qishloq joylarda yaratildi. Bu borada kichik korxonalar, mikrofirmalar va yakka tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirish evaziga 480 mingdan ortiq, kasanachilikni kengaytirish hisobidan esa 210 mingdan ziyod ish o‘rni tashkil etildi”<sup>1</sup>. Shunga ko‘ra, mamlkatimizda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish, aholining, ayniqsa, yoshlarning ish bilan bandligini ta’minlash, odamlarning daromadi va farovonligini oshirishga imkon bermoqda.

Iqtisodiy faol aholi tarkibidagi yoshlar eng istiqbolli toifa hisoblanib, uzoq muddatli intellektual investisiya obyekti hisoblanadi. Ular bilim darajasining yuqoriligi, kuchli mehnat motivasiyasi, jo‘shqin jismoniy salohiyat, mehnat bozori talab etayotgan kasb va ixtisoslikka tez o‘qitish va o‘rgatish imkoniyatlari bilan ajralib turadi.

O‘zbekistonda har yili yuz minglab yangi ish o‘rinlari tashkil etilayotganligiga qaramasdan mehnat resurslari miqdori muttasil o‘sib borayotganligi, iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar va boshqa omillar mehnat bozorida ishchi kuchi taklifi unga talabdan yuqori bo‘lishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarini tugallayotgan yigit-qizlarni ixtisosliklari bo‘yicha ish bilan ta’minlashda jiddiy muammolar mavjuddir. Bu

---

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2014 yil 18 yanvar, №13.

esa yoshlarni ish bilan bandligini ta'minlashda jiddiy muammolarni vujudga keltirmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy jihatdan yetarli darajada himoya qilinmagan yoshlar orasida ishsizlar soni salmoqli miqdorga ega bo'lmoqda. Bunday holat mehnat bozorida yoshlarning ish bilan bandligini ta'minlash bo'yicha ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishning yangi, samarali usullarini tadqiq etishni talab qilmoqda.

Iqtisodiy modernizasiyalash sharoitida O'zbekistonda ham yoshlar mehnat bozoriga, xususan yoshlar ish bilan bandligini oshirishda davlat siyosati bilan bog'liq yechimini topish lozim bo'lgan bir qator muammolar mavjud. Ularning asosiylari sifatida:

- yoshlarning ish bilan bandligini oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, yoshlarning ish bilan bandligini tartibga solish,

- yoshlar ish bilan bandligini ta'minlash va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ishga joylashtirish ko'lamini kengaytirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli,

- yoshlarning ish bilan bandligini oshirish mezonlari va ko'rsatkichlar,

- yoshlar mehnat bozorini tartibga solish mexanizmlari hamda yoshlar mehnat bozorida oqilona ish bilan bandlikni ta'minlashni takomillashtirish yo'llari kabi muammolarni alohida qayd etib o'tish lozim.

Yuqorida zikr etilgan muammolarning mavjudligi, shuningdek mehnat bozorida yoshlarning ish bilan bandligini oshirishda davlat siyosati, uni tartibga solish va takomillashtirish nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilishning zarurligi magistrlik bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

**Mavzuning o'rganganlik darajasi.** Mehnat bozori, ishsizlik, inflyasiya, aholini ish bilan ta'minlash muammolarini fundamental tadqiq etishga: Keyns J.M., Lukas R.Ye., Osvald A., Armstrong J., Rozan X., Rudebsh J., Xayek F., Xoll S., Yanosh K. kabi xorijiy yetakchi olimlarning ilmiy ishlari bag'ishlangan. Bu tadqiqotlar iqtisodiyotni yangilash sharoitida turgan mamlakatlarda mehnat bozorining umumiy muammolarini o'rganish uchun nazariy asos bo'lib xizmat

qilmoqda. Shuningdek, MDH mamlakatlari olimlaridan Adamchuk V.V., Volgin N.A., Genkin B.M., Kosnikov V.G., Kotlyar Z.A., Kuzmin S.A., Maslova I.S., Odegov Yu.G., va boshqalar munosib hissa qo'shganlar. Bu muammolar tadqiqotiga o'zbekistonlik olimlardan Abdurahmonov Q.X., Zaynutdinov Sh.N., Zokirova N.Q., Raximova D.N., Raximova N.X., Tursunxo'jayev M.L., Ubaydullayeva R.A., Xolmo'minov Sh.R., Xudoyberdiyev Z.Ya., Shoyusupova N. va boshqa olimlarning ilmiy ishlari bag'ishlangan.

Bu ilmiy izlanishlarda mehnat bozorining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, uning shakllanishi, aholini ish bilan bandligi va uni tartibga solish usullari to'la yoritib berilgan. Lekin, ularda yoshlarning ish bilan bandligini tartibga solishning bevosita va bilvosita usullari tadqiqot obyekti sifatida batafsil o'rganilmagan. Mazkur muammolarning iqtisodiyotini yangilash sharoitida to'liq o'rganilmaganligi tadqiqot mavzusining dolzarbligi, uning maqsadi, asosiy vazifalarning to'g'ri aniqlashga imkon yaratadi.

**Tadqiqot ishining maqsadi** – iqtisodiyotni modernizasiya qilish sharoitida O'zbekistonda yoshlarning ish bilan bandligini tartibga solish yo'nalishlarini aniqlash va takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda tadqiqot ishining asosiy **vazifalari** etib quyidagilar belgilandi:

- yoshlarning ish bilan bandligini oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va mohiyatini yoritish;
- aholi ish bilan bandligi bo'yicha nazariy yondashuvlarni o'rganish;
- yoshlarning ish bilan bandligini tartibga solishni tadqiq etish;
- yoshlar ish bilan bandligini ta'minlash va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ishga joylashtirish ko'lamini kengaytirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rolini aniqlash;
- respublikada yoshlar ish bilan bandligini ta'minlash holatini tahlil qilish;
- yoshlarning ish bilan bandligini oshirish mezonlari va ko'rsatkichlarini aniqlash;

– yoshlar mehnat bozorini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirishning asosiy yoʻnalishlarini aniqlash;

– yoshlar mehnat bozorida oqilona ish bilan bandlikni taʼminlashni takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish

**Tadqiqot obyekti** – Oʻzbekiston Respublikasida shu soxada ish olib boradigan shahar, viloyat, tuman bandlikka koʻmaklashish markazlari.

**Tadqiqot predmeti** – mehnat bozorida yoshlarning ish bilan bandligini oshirishda davlat siyosatida amalga oshadigan ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlar majmuasi.

**Tadqiqotning nazariy va metodologik asosi** boʻlib, Oʻzbekiston Respublikasi Qonunlari, respublikamiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan Oʻzbekiston Respublikasida ijtimoiy yoʻnalishdagi bozor iqtisodiyotiga oid asarlari, aholining ish bilan bandligi, mehnat bozori hamda vatanimiz olimlarining olib borgan ilmiy ishlari xizmat qildi.

Tadqiqot ishida Oʻzbekiston Respublikasi iqtisodiyot, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Davlat statistika qoʻmitasining maʼlumotlari manba sifatida ishlatildi.

**Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

– yoshlarning ish bilan bandligini taʼminlashning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va mohiyati oʻrganilgan;

– aholini ish bilan bandligi boʻyicha nazariy yondashuvlar yoritib berilgan;

– yoshlarning ish bilan bandligini tartibga solishda davlatning roli yoritib berilgan;

– respublikada aholini ish bilan bandligini taʼminlash holati tahlil qilingan;

– yoshlar ish bilan bandligini taʼminlash va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ishga joylashtirish koʻlamini kengaytirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli tahlili qilingan;

– yoshlarning ish bilan bandligini oshirish mezonlari va ko'rsatkichlar aniqlangan;

– yoshlar mehnat bozorini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari yoritib berilgan;

– yoshlar mehnat bozorida oqilona ish bilan bandlikni ta'minlashni takomillashtirish yo'llari bo'yicha muammolar yechimi yuzasidan aniq xulosa va tavsiyanomalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Diplom ishining ilmiy-amaliy tavsiyalari ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosi sifatida aholini ish bilan bandligini ta'minlashda keyinchalik tadqiq etish uchun nazariy asos sifatida qo'llanilishi mumkin. Diplom ishi aholini ish bilan bandligini ta'minlash tizimini takomillashtirish muammolarini o'rganish jarayonini to'ldiradi, shuningdek, unda mehnatga layoqatli aholidan foydalanishni yaxshilash vazifalarini hal etishga oid aniq takliflar ishlab chiqildi.

Ushbu diplom ishining ilmiy-amaliy tavsiyalaridan O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarida, shuningdek, iqtisodiyotning samaradorligini oshirish maqsadlarida Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish boshqarmalarida, tuman bandlikka ko'maklashish markazlarida foydalanish mumkin. Bundan tashqari, tadqiqot natijalari oliy o'quv yurtlarida «Mehnat iqtisodiyoti va sosiologiyasi», «Mehnat bozori iqtisodiyoti» kabi fanlarni o'qitish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

**Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi.** Ushbu BMI to'rtta paragraf va ikkita bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

# I. Bob Mehnat bozortining shakllanish jarayoni va uni rivojlantirish yo'llari

## 1.1. Mehnat bozori tushunchasi va asosiy xususiyatlari.

Bozor ayrim tovarlar va xizmatlarga talab bilan murojaat qiluvchi xaridorlar va taklif asosida etkazib beruvchi sotuvchilarni bir-biriga qo'shadigan institut yoki mexanizmdir. Xomashyo, materiallar, yoqilg'i, tayyor mahsulot, qimmatli qog'ozlar, pul (kredit) bozorlari bir-biridan farqlanadi. Ana shu bozorlarni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari bor.

Ularning namoyon bo'lishiga, asosan, bozor negizi — mazkur bozorda oldisotdi ob'ekti bo'ladigan tovar ta'sir etadi. Shunga ko'ra, bozorlar turli shakllarda: bular



tamaddixona va kichik do'konchadan tortib, yirik fond birjasi va xalqaro kreditlar bozorigacha bo'lishi mumkin.

Bozorlar orasida mehnat bozori alohida o'rin tutadi. Bozor iqtisodiyotining ajralmas va muhim tarkibiy qismi — mehnat bozoridir. Aynan mehnat bozori orqali g'oyat muhim milliy resurs bo'lgan mehnat mintaqalar, tarmoqlar, firmalar va kasblar bo'yicha taqsimlanadi. Shu bozorda uning bahosi ham belgilanadi.

Mehnat bozori ish bilan bandlikni tartibga solishda faol rol o'ynaydi. Mehnat bozorida asosiy milliy resurs — ishchi kuchi shakllanadi hamda korxonalar, tarmoqlar va mintaqalar bo'yicha taqsimlanadi.

Mehnat bozori iqtisodiy faol aholining ish bilan bandligini, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasiga jalb etilishini ta'minlaydi. U xodimning o'zi uchun yanada mosroq ish joyiga o'tishini engillashtiradi. Mehnat bozori orqali korxonalar zarur miqdorda va talab qilingan sifatga ega ishchi kuchi bilan



ta'minlanadi. Mehnat bozori qanday kadrlar, mutaxassislar, kasblarga talab borligini, ulardan qandaylari ortiqchaligini ko'rsatadi. Mehnat bozorida raqobatning mavjud bo'lishi, bir tomondan, yollanma xodimlar o'z professional mahoratini o'stirishi va kengaytirishini, malakasini oshirishini rag'batlantiradi, ikkinchi tomondan, ish beruvchilarni qulay mehnat va unga haq to'lash sharoitlarini yaratish hamda saqlab turishga undaydi.

Mehnat bozorining asosiy unsurlari quyidagilardir:

- Ishchi kuchini taklif qilish.
- Ishchi kuchiga talab.

Ishchi kuchiga talab va taklifning nisbati asosida uning bahosi (ish haqi) shakllanadi.

Mehnat bozori unda vujudga kelayotgan ishchi kuchi oqimlarini tartibga soladi. Bu oqimlar to'rtta asosiy yo'nalish bo'yicha yuzaga keladi:

Birinchisi — ish bilan bandlarning ishni yo'qotishi natijasida ishsizlar safiga o'tishi.

Ikkinchisi — ishsizlarni ishga joylashtirish va shu tariqa ularning ish bilan bandlar toifasiga o'tishi.

Uchinchisi — ish izlashni to'xtatish, ya'ni mehnat bozorida chiqib ketish va iqtisodiy faol aholidan iqtisodiy nafaol aholiga o'tish.


To'rtinchisi — ilgari ishlamagan yoki hech qachon ish qidirmaganlarning ish qidirishi va ishga joylashishi, shu tariqa ularning iqtisodiy faol aholi toifasiga kirishishi.

Mehnat bozorida ishchi kuchi yollanma mehnat sifatida namoyon bo'ladi. Yollanib ishlaydiganlar ish bilan bandlarning, shu jumladan menedjerlar va ma'murlarning ham aksariyat ko'pchiligini tashkil qiladi. Faoliyati mulk shakllarining xilma-xilligi bilan belgilanadigan ish bilan bandlarning boshqa toifalari mulkdor tadbirkorlardan, o'z ishi bilan band xodimlardan, yordam beruvchi oila a'zolaridan iborat. Mehnat bozorisiz muvozanatli iqtisodiyotni bunyod etib bo'lmaydi, chunki iqtisodiyotni boshqarish, avvalo, odamlarning mehnat faoliyatini boshqarishni nazarda tutadi. Shuning uchun ko'plab chet ellik

iqtisodchilar mehnat iqtisodiyoti va mehnat sosiologiyasi masalalarini ish haqi va ish bilan bandlik imkoniyatlarining o'zaro bog'liqligi, ta'lim va xodimlar tayyorlashga kapital mablag' sarflashni rag'batlantirish va shu sarflarning samaradorligi, mehnatning ijtimoiy masalalarini mehnat bozori nuqtai nazaridan olib qaraydilar.

Agar bozor iqtisodiyoti elementlarini turli-tuman bozorlar turkumidan iborat bo'lgan imorat deb tasavvur etsak, uning tomidan chakka o'tib, devorlari teshilgan bo'lsa ham imoratdan ma'lum muddat foydalanish mumkin. Lekin

bino poydevorsiz bo'lsa, u albatta qulaydi. Mehnat bozori keng ma'noda tushuniladigan bo'lsa, mehnat miqdori va sifati muvofiq taqdirlanadigan, uni normal qayta tiklash hamda undan samarali foydalanishni ta'minlaydigan ijtimoiy



munosabatlar, shu jumladan yuridik norma va tartibotlar tizimidir. Tor ma'noda mehnat bozorini ish beruvchilar—ishlab chiqarish vositalari egalari bilan yollanma ishchilar — ish kuchi egalari o'rtasidagi — birinchilarning mehnatga talabini va ikkinchilarning yashash vositalari manbai sifatida ishga yollanish bo'yicha ehtiyojlarini qondirish borasida shakllanadigan munosabatlar tizimi tarzida ta'riflash mumkin.

Ishchi kuchining tovarligini, demak, mehnat bozorini ham shakllantirishning ikkinchi muhim zamini ishchi kuchining egasi erkin tovar ishlab chiqaruvchi bo'lish imkoniyatidan mahrum bo'lishi kerak. Agar kishi bozorda o'zi mustaqil ishlab chiqargan va unda o'zining mehnati moddiylashgan tovarlarni sota olmasa, demak, u yashash uchun mablag' topish maqsadida o'z ishchi kuchini sotishi kerak bo'ladi.

Mehnat bozorining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, mazkur bozorda tovar buyumli shaklda bo'lmaydi. Mehnatning tovarlar va ishlab chiqarish resurslarining yalpisidan prinsipial farqi shundaki, u inson hayotiy faoliyatining eng muhim sohasi, inson shaxsining o'zini namoyon etishi shaklidir.

Mehnat bozori tarkibiy qismlari o'rtasida tarkib topgan nisbatga tadbiquan «mehnat bozori kon'yunkturasi» tushunchasi qo'llaniladi. Mehnat bozori kon'yunkturasi quyidagi uch turi bo'lishi mumkin:

1. Xodimlar taqchilligi, bunda bozor mehnat taklifi kamligini boshdan kechiradi.
2. Ishsizlik, bunda mehnat bozorida mehnat taklifi ortig'i bilan bo'ladi.
3. Muvozanat, bunda mehnatga talab mehnat taklifiga mos keladi.

Mehnat bozorining ishlashi ishchi kuchini mehnatni tatbiq etish sohalari, xalq xo'jaligi tarmoqlari, korxonalar, tashkilotlar, firmalar o'rtasida qayta taqsimlash erkinligining yuqori darajada bo'lishini nazarda tutadi. Bu eski ish joylarining qisqartirilishi va tugatilishi hamda yangi ish joylarining tashkil etilishi bilan birga bog'liq bo'lgan sarmoyaning erkin kirib kelishi natijasida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda o'zgarishlar sodir bo'ladi degan ma'noni anglatadi.

Mehnat bozorini haqiqiy ishlashining muhim sharti unda barcha mehnat munosabatlari ishtirokchilari: davlat, ish beruvchilar va yollanma ishchilarning mos xatti-harakatlari hisoblanadi.

Mehnatning erkinligi va ixtiyoriyligi - mehnat bozori shakllanishining asosiy sharoiti yohud shartidir.

Shu bilan bir qatorda mehnat bozorining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatayotgan bir qator iqtisodiy, ijtimoiy, demografik, tabiiy-iqlimiy va huquqiy shart-sharoitlar va omillar mavjudki, ularni biz quyida batafsilroq ko'rib chiqamiz.

Mehnat bozori (MB) shakllanishining asosiy iqtisodiy shart-sharoiti bo'lib, yollanma xodimlarni o'z ishchi kuchlariga nisbatan shaxsiy

mulkchiliklari va ish beruvchilarning ish joylariga jamoa yoki xususiy mulkchiligi xizmat qiladi. Bu yerda shuni nazarda tutish kerakki, mazkur sub'ektlarni o'zaro almashuv munosabatiga kirishiga ularning shaxsiy manfaatlari majbur qiladi, uning orqasida shaxsiy iste'molchilik yotadi. Ular ham o'z navbatida qayta takror ishlab chiqarishda aholi ijtimoiy-iqtisodiy turmushining faqat kerakli ijtimoiy ehtiyojining ifodalanishi bo'ladi.



MBining vujudga kelishi ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi muvozanatga erishish uchun o'zaro raqobat qilishga tayyor erkin va teng huquqli sheriklar iqtisodiy munosabatlarda bo'lishlarini taqozo etadi. Bozorda yollanma xodim va ish beruvchi shaxsiy erkinlik va iqtisodiy zaruriyat nuqtai nazaridan o'zaro bog'langan hamda bir-birlariga qaram bo'lsalar ham bir-birlariga qarshi turadilar.

Ishchi kuchi talab va taklifi o'rtasida bozor muvozanatiga erishish MBining shakllanishida hal qiluvchi iqtisodiy shartlardan biri hisoblanadi. Ammo bunday muvozanat mavjud emas. Buning asosiy sababi - taklif qilingan mehnatga layoqatli aholi sonining unga talab miqdoriga nisbatan tez o'sishi.

Mehnat bozori kon'yukturasi shakllanishining ijtimoiy shart-sharoitlari ichida yollanma xodimlar va ish beruvchilarning sifat ko'rsatkichlari oshishi yetakchi o'rin egallaydi.

Ish beruvchi va yollanma xodim o'rtasida tuzilgan mehnat shartnomasi (kontrakt) mehnat bozorida ishchi kuchining sotish, sotib olishning hal qiluvchi huquqiy shart-sharoiti hisoblanadi.

Ishchi kuchiga talab va taklif nisbati yaxshilanishiga tabiiy-iqlim sharoitlari muhim rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Yuqori unumdor qishloq xo'jaligi yerlarida va yetarlicha suv bilan ta'minlangan yashash joylarida ishchi kuchi ko'proq jamlanadi va ishchi joylari normal faoliyat ko'rsatadi. Yangi ish joylarini yaratish va ishlab turgan korxonalarni kengaytirish yo'li bilan ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga ma'lum darajada imkoniyatlar vujudga keltiriladi. Bu esa mehnat resurslarining ortiqchalik darajasini, demak, ishsizlik miqyosini ham keskin kamaytirishga bevosita ta'sir etadi.

Shu bilan birga ortiqcha mehnat resurslariga ega respublikamiz hududlarida ishchi kuchiga talabning oshishi va uning taklifi pasayishiga bevosita ta'sir etuvchi omillarni tadqiq qilish eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Ishchi kuchiga talabning oshishini asoslovchi omillarga quyidagilar kiradi: noqishloq xo'jaligi tarmoqlarda yangi ish joylarini yaratish, mehnat qo'llaniladigan amaldagi mintaqalarni texnik qayta jihozlash, modernizasiyalash, qayta ta'mirlash, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, yangi yerlarni o'zlashtirish, qayta ishlash sanoati, xizmatlar ko'rsatish va shaxsiy mehnat faoliyati ko'lamini kengaytirish, kichik va o'rta biznes hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va boshqalar. Shu bilan bir vaqtda ishchi kuchi taklifini va ish joylariga ehtiyojni pasaytiruvchi omillar vujudga keladi va ular ta'sir qila boshlaydi: shaxsiy yordamchi xo'jalik, yakka mehnat faoliyati, xususiy tadbirkorlik va o'z-o'zini band qilishning boshqa sohalarini rivojlantirish, bandlikning egiluvchan va nostandart shakllarini kengaytirish, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilishning bozor usullarini tatbiq etish,

inflyasiya va ishsizlikni pasaytirish, mahalliy kadrlarning mobilligini (safarbarligini) hamda malakasini oshirish va boshqalar.

Mehnat resurslari bilan kam ta'minlangan hududlarda esa bir qator omillar ishchi kuchiga talabning pasayishiga ko'maklashadi. Xususan, bu ijara va xususiy mulkchilikni rivojlantirish, to'lash qobiliyatiga ega bo'lmagan yoki ekologik zararli korxonalarni yopish, yangi yerlarni o'zlashtirish ko'lamini

qisqartirish, moddiy-  
texnikaviy va moliyaviy  
resurslar ta'minotini  
yaxshilash, intensiv

texnologiyani qo'llash,  
mehnat unumdorligini  
oshirish va hokazo.  
Bundan tashqari, mazkur  
hududlarda ishchi kuchi  
taklifini oshiruvchi  
omillar mavjud:  
kadrlarning malakasi,



ma'lumoti, mobillik va eksportabellik darajasining pastligi, mehnat resurslari soni o'sish sur'atining ish joylari miqdoriga nisbatan yuqoriligi, qishloq xo'jaligida ishlovchilarni ish joyidan ozod etishning ko'payishi, mehnatni qo'llash mintaqalarining yetishmasligi va boshqalar.

Shu bilan birga shunday omillar ham borki, ular kompleks holda ishchi kuchi taklifining shakllanishi holatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Ularga quyidagilar kiradi: ishlashni xohlovchilar, yollangan xodimlar va ish beruvchilarning tabiiy va mexanik harakatlari; turmush uchun zarur bo'lgan mablag'lar jamg'armasi; yollangan xodimlarning pul daromadlari; nafaqaxo'rlar va bolalik ayollarning mehnat va ijtimoiy pensiyalari, imtiyozlari va kafolatlari; kasbiy tayyorlash yoki qayta tayyorlash va malakasini oshirishga zaruriyati bo'lgan shaxslarni mablag'lar bilan ta'minlovchi davlat, korxonalar va oilaning

moliyaviy imkoniyatlari; shaxsiy yordamchi xo'jaligida va yollanmasdan "uy mehnati"da band bo'lganlar soni; Qurolli Kuchlarda xizmat qiluvchilar soni va ularda xizmat qilish muddati; muqobil va malakali kasbiy xizmatlarni takomillashtirish va hokazo.


Ishchi kuchiga talabning o'sishi yoki kamayishi (dinamikasi) quyidagi miqdor va sifat ko'rsatkichlarining o'zgarishi bilan aniqlanadi: mavjud bo'lgan va yangidan yaratiladigan ishchi joylari; investisiya salohiyati va uning takror ishlab chiqarish tuzilishi; iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar; mulkchilik shakllarining turli-tumanligi; korxonalar va tashkilotlarning to'lovga qodir emasligi (bankrotligi) va hokazo.

Barcha turdagi bozorlarda sotuvchilar va xaridorlar mavjud bo'lib, ular harakat qilganidek, bu jarayon mehnat bozorida ham amal qiladi. Bu bozor mehnatni sotadiganlar va sotib oladiganlardan iborat bo'ladi. Agar sotuvchi va xaridorlar bir-birlarini butun mamlakat bo'ylab izlasalar, bunday bozor milliy mehnat bozori deyiladi. Sotuvchi va xaridorlar bir-birlarini faqat muayyan hududda izlasalar, bunday bozor mahalliy bozor deb nomlanadi.

O'zbekistonda zamonaviy mehnat resurslari bozori endigina shakllana boshladi. U mazkur mezon bo'yicha hali o'z shaklini egallagani cha yo'q. Bu xusussda uni aralash hamda mehnat bozorining birinchi turiga moyilroq deyish mumkin.

Joriy bozor quyidagi ikki qismga bo'linadi:

- 1) ochiq bozor, unda taklif ish qidirayotgan, shu jumladan, qayta kasb tanlashga, kasb tayyorgarligi va qayta tayyorgarligiga muhtoj bo'lgan odamlarni qamraydi, talab esa bo'sh o'rinlar bilan tavsiflanadi;
- 2) yashirin bozor, u rasman xo'jalikda ish bilan band bo'lgan, lekin ishlab chiqarishga zarari etmaydigan tarzda bo'shatib olinishlari mumkin bo'lgan shaxslarni o'z ichiga oladi. Ana shu har ikkala bozorning rasmiy (ro'yxatga olingan) va norasmiy (ro'yxatga olinmagan) qismi bo'ladi.




Rasm. Joriy bozor turlari

O'zbekistonda hozir amalda bo'lgan mehnat bozori bir xil emas. U ishchi kuchi zahiralarini to'plash usul va shakllari, tashkil etish va boshqarish, ishlab chiqarish samaradorligi hamda mehnatkashlar holatiga ta'sir etish xarakteriga ko'ra farqlanadigan, turli funksional vazifani bajaradigan, ikkita o'zaro bog'langan soha hosil qiladigan ko'p qatlamli tuzilmadir. Aytib o'tilgan belgilariga ko'ra uni «ochiq» va «yashirin» ishchi kuchi bozoriga ajratish mumkin. Ochiq ishchi kuchi bozori rasmiy va norasmiy (asosan o'z-o'zidan) shakllangan qismlar bilan berilgan (1-chizma).

Nufuz mezonlari bo'yicha mehnat bozorlari quyidagilarga ajraladi:

- yoshlarning mehnat bozori;
- xotin-qizlarning mehnat bozori;
- keksa yoshdagi fuqarolarning mehnat bozori;
- nogironlarning mehnat bozori.





1-chizma. Ishchi kuchi bozorining tuzilmasi.

Ushbu mehnat bozorlarida amal qiluvchi ishchi kuchining ko'rsatkichlari barqaror bo'lib, bu ko'rsatkichlar ulardan foydalanish xarakterini va mehnat sharoitlarini belgilab beradi. Mazkur mehnat bozorlaridagi xodimlar uchun mushtarak holat shuki, ularning hammasi marginal guruhlariga kiradi va ularni ishga solish muayyan cheklovlar bilan bog'liq.

## 1.2 Yoshlar mehnat bozorining shakllanishi.

Yoshlarning ish bilan bandligi va ularni professional faoliyatga tayyorlash ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan alohida ahamiyatga ega. Dunyoning hamma erida yoshlar orasida ishsizlikning yuqori darajada ekanligi kuzatilmoqda. Bu hol ma'lum darajada yoshlarning o'z xulq-atvor xususiyatlari bilan bog'liq: birinchi ish joyida ish haqi yuqori bo'lmasligi sababli ular muqim ishlab qolishdan moddiy manfaatdor bo'lmaydilar; barqaror daromad olishga undovchi sabab yo'q bo'lib, ushbu vaziyat yoshlarni ota-onalari ko'pchilik hollarda moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashlari bilan bog'liq va hokazo. Buning ustiga ular ko'pincha o'zlarining dastlabki mehnat tajribalarini muayyan ishda emas, balki ish joylarini o'zgartirish yo'li bilan professional faoliyatning har xil turlarida orttirishga harakat qiladilar. Shu bilan birga, yoshlarning ish bilan bandligi asosan ish beruvchilarning munosabati bilan belgilanadi — kon'yunktura yomonlashgan har bir holatda ular, eng avvalo, malakasi hammadan kam va tajribasiz bo'lgan yosh xodimlarni qisqartiradilar.

Yoshlarning ish bilan bandligiga ijtimoiy-iqtisodiy, xududiy va demografik jarayonlarning ta'sirini tahlil etishdan avval yoshlar toifasiga aniqlik kiritish talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasi 1-Prezidenti Karimov I.A. "Bizning eng katta kuch-qudratimiz manbai bu – barcha tabiiy boyliklarimizni ishga solishga, buyuk ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida yaratilgan betakror ma'naviy merosdan, jahondagi taraqqiy topgan davlatlarning intellektual boyligi va tajribasidan oqilona foydalanishga tayyor bo'lgan, bir so'z bilan aytganda, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi asosida tarbiya topayotgan, hech kimdan kam bo'lmaydigan yosh avlodimizdir"<sup>2</sup>, deb ko'rsatgan.

Yoshlar jamiyatining alohida guruhi sifatida tadqiqotning murakkab ob'ekti hisoblanadi. yosh avlod muammolari bilan amalda insonni o'rganuvchi barcha tabiiy va ijtimoiy fanlar – jumladan, fiziologiya, sotsiologiya, demografiya, statistika shug'ullanadi. yoshlarning shakllanishi va rivojlanishi

---

<sup>2</sup> Каримов И.А. Ватанимизга, халқимизга садоқат билан хизмат қилиш – олий саодатдир. -Т.: "Ўзбекистон", 2007. –Б. 18.

qonuniyatlarini tadqiq etishning muayyan nazariy modelini alohida ilmiy yoʻnalish – yuvenologiya orqali ishlab chiqishga harakat qilinmoqda.


Jamiyat ishlab chiqarish kuchlari tarkibida hamda ishlab chiqarish munosabatlarida yoshlarning turli ijtimoiy-iqtisodiy guruhlarining oʻrni va roli iqtisodiy nazariya va iqtisodiy sotsiologiya tomonidan tadqiq etiladi.

Mehnat bozorida yoshlarning ish bilan bandligini tartibga solish usullari, vositalari va tadbirlari muayyan davrdagi u yoki bu mamlakatdagi yoshlar ish kuchiga talab va taklif bilan bogʻliq iqtisodiy va ijtimoiy muammolarning tavsifi va keskinligi bilan belgilanadi.

Zamonaviy jamiyat uchun mehnat bozorini tartibga solishni hayotiy muhimligi uni rivojlanishi uchun davlat joriy xarajatlarining koʻlami orqali namoyon boʻladi. Faqat mehnat bozori doirasida ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish uchun gʻarb davlatlarida har yili yalpi milliy mahsulotning 2-3 %i miqdorida mablagʻlar ajratiladi.

Yoshlar mehnat bozorini tartibga solishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmini amalga oshirishda uning quyidagi elementlari qatnashadilar: mehnat bozoriga omillar orqali taʼsir qiluvchi subʼektlar, obʼektlar, shakllar, usullar va vositalar.

Yoshlar mehnat bozorini tartibga solishni ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmi mazkur bozorni faoliyat koʻrsatishini belgilaydigan iqtisodiy, institutsional, tashkiliy, ijtimoiy-psixologik va demografik omillarning hamma jabhalarini qamrab oladi (1.2-rasm).



**1.2-rasm. Yoshlar mehnat bozoriga taʼsir koʻrsatuvchi omillar**

**Institutsional omillarga**, eng avvalo, yoshlar mehnat bozorini shakllantirishning huquqiy bazasini yaratish kiradi. Mamlakatda “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga doir davlat siyosati to‘g‘risida”, “Ta‘lim to‘g‘risida” qonunlar, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi mavjud bo‘lsa ham, bugungi kunda yoshlar mehnat bozoriga doir maxsus huquqiy hujjat ishlab chiqilishi va qabul qilinishi maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Mazkur qonunda yoshlarning ish bilan bandligini ta‘minlash maxsus jamg‘armasini tashkil etish, yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, shu jumladan ish bilan bandligini ta‘minlashga oid dasturlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish tamoyillari o‘z ifodasini topishi mumkin.

**Ijtimoiy-psixologik** omillar yoshlarni kasbga yo‘naltirish, ularning kasbiy tayyogarliligi, mehnat faoliyatiga ko‘niktirish, ishni ta‘lim olish bilan qo‘shib olib borish imkoniyatlarini yaratish kabi masalalarni qamrab oladi. Bu haqda keyingi boblarda batafsil so‘z boradi.

**Tashkiliy omillar** hududiy ish bilan bandlikka ko‘maklashuvchi markazlar faoliyati bilan bog‘liqdir. Ular yoshlarni mazkur xududda mavjud bo‘sh ish o‘rnilarini to‘g‘risida tezkor xabardor qilib borishlari, ishsiz yoshlarni ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlarini, jumladan zarur hollarda ularni yangi kasblarga o‘qitishlari, ijtimoiy ishlarga jalb qilishlari talab etiladi.

**Iqtisodiy omillar** hududda ishlab chiqarish kuchlarining, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, kasanachilikning rivojlantirilganligi, investitsiya faolligiga taalluqlidir.

**Demografik omillar** mamlakat hamda uning hududlarida aholi soni, uning tabiiy o‘sishi mehnat resurslari, iqtisodiy jihatdan faol aholi miqdoriga bevosita ta‘sir ko‘rsatuvchi eng muhim omillardan biridir.

Demografik muhit ta‘siri ostida mehnat bozori sub’ektlari: yollanma ishchilar va ish beruvchilar shakllanadi. Uning holatiga mehnat bozorining miqdoriy ko‘rsatkichlari, xususan, ishchi kuchi taklifi bog‘liq. Boshqa muhitlarning ta‘siri mehnat bozorini va iqtisodiyotni rivojlanish darajasini xarakterlaydi.

Aholi mamlakat iqtisodiyotiga nisbatan bir yo‘la ham moddiy ne‘matlarning yaratuvchisi, ham ularning iste‘molchisidir. Bunday ikki tomonlama bog‘liqlik aholi va iqtisodiyot o‘rtasidagi aloqalar murakkabligini ko‘rsatadi. Iqtisodiyotni rivojlantirishga aholining jinsi va yoshi, ta‘lim darajasi hamda kasb malakasi eng jiddiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bu xususiyatlar mehnat resurslari miqdori va sifatini belgilaydi.

Mehnat resurslari aholining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lganligi sababli aholi soni va tarkibining o‘zgarishi mehnat resurslarining holatiga ta‘sir ko‘rsatmay qolmaydi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston sharoitida jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozini bartaraf etish, mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiyalashning hududiy jihati hisoblangan “qishloq joylardagi mavjud infratuzilmani yana bir bor tanqidiy baholab, uni kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha mablag‘ va imkoniyatlar topish zarur. Bu qishloqlarda aholini, ayniqsa yoshlarning bandligini oshirishning muhim omillaridan biri ekanini unutmasligimiz darkor.

Demograflar aholini uch guruhga – yoshlar, o‘rta yoshdagilar va keksalarga bo‘ladilar. Pressa R. “bu uch guruh jamiyatda turli rollarni bajaradi va aniq tabaqalashtirilgan ehtiyojlarga ega”,<sup>3</sup> deb hisoblaydi. Bu tasnifga binoan aholi guruhlari demografiya nuqtai nazaridan 20 yoshgacha bo‘lganlar, 20 yoshdan 59 yoshdagilar hamda 60 va undan yuqori yoshdagilardan tarkib topadi.

Iqtisodiy jihatdan esa mazkur tasnif quyidagicha bo‘lishi kerak: 15-34; 35-54 hamda 54 va undan yuqori yoshdagilar.

AQSHlik demograf Frennel Z.G. aholini tasniflashga boshqacharoq yondashadi. U 5–15 yoshdagilarni o‘smirlar, 15–24 yoshdagilarni ilk yosh, 25–44 yoshdagilarni – asosiy ish yoshi, 45–65 yoshdagilarni – o‘rta yosh, 65–74 yoshdagilarni – pensiyaga erta chiqish yoshi, 75 va undan katta yoshdagilarni qarilik yoshi, deb ta‘riflaydi<sup>4</sup>.

---

<sup>3</sup>Пресса Р.Население и его изучение . –М.: “Статистика”, 1996, -С. 267.

<sup>4</sup>Френкель З.Г. Удлинение жизни и деятельное старость. –Ленинград.: «Экономиздат», 1945. –С. 144.

Ikkinchi bir amerikalik D. Boug aholini 9-17 yoshdagilar (Yoshlar), 18–24 (ilk etuklik), 25–44 (etuklik), 45–64 (o‘rta mo‘ysafidlik), 65–74 (ilk qarilik), 75 va undan yuqori yoshdagilar (qarilik)ga guruhlaydi<sup>5</sup>.

Iqtisodchi sotsiolog L.Rozenmayer esa Yoshlar – 13–24 yoshdagilar bo‘lib, ular ikki: o‘smirlar (13–18 yoshdagilar) hamda etuklik yoshidagilar (18-24) ga bo‘linadi, degan fikrni olg‘a suradi<sup>6</sup>.

Olimlar yoshlarning muayyan, xususan ijtimoiy etuklik, kasbda o‘shish, malaka oshirish kabi belgilariga aniqlik kiritishga harakat qilganlar. Masalan, bir guruh sotsiologlar ijtimoiy etuklikka “shaxsning ijtimoiy munosabatlar tizimida iqtisodiyot, siyosat, huquq sohalarida o‘z teng huquqli ijtimoiy rolini amalda bajarib, bu roli va mas’uliyatini anglatadigan hamda ulardan kelib chiqadigan majburiyatlarini bajaradigan holati”<sup>7</sup> tarzida ta’rif berganlar.

Hozirgi davr ilmiy adabiyotida yosh avlod Yoshlari chegarasi tor va keng ma’noda talqin etiladi. Tor ma’noda yoshlar deyilganda 16–18 yoshdan 25–30 yoshgacha bo‘lganlar tushuniladi. Keng ma’noda esa inson tug‘ilgandan 25–30 yoshgacha bo‘lgan davri – yoshlik davri, deb hisoblanadi.

BMT atamashunosligi va amaliyotida bolalar va Yoshlar quyidagicha tasniflanadi:

1. bolalar: 18 yoshga to‘lmagan shaxslar;
2. o‘smirlar: 10-19 yoshdagilar (shu jumladan ilk, o‘rta va katta o‘smirlik yoshi);
3. Yoshlar: 15-24 yoshdagilar;
4. yosh kishilar: 10-24 yoshda bo‘lgan barcha shaxslar.<sup>8</sup>

Yoshlarni mehnatga tayyorlash maqsadida umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarini 15 yoshga to‘lganlaridan keyin ota-onasidan

---

<sup>5</sup>Bogue D. The population of the United States. – Clencoe, 1959, -P.21.

<sup>6</sup>Rozenmayer L.Towards an overriev of youth sociology – “Intern. Soc. Sci. J”, vol, XX, №2, 1968, -P.287.

<sup>7</sup>Громов Ц.А., Иконникова С.Н., Лисовский В.Т. Молодёжь в обществе: человек и общество. Социальные проблемы молодежи. Уч.записки ЛГУ. Вып. VI. -Ленинград, 1969, -С. 159.

<sup>8</sup>Молодежь в меняющемся обществе. Региональный мониторинговый доклад. – М.: «ЮНИСЕФ», 2000, -С.194.

birining yoki ular o‘rnini bosuvchi shaxsning roziligi bilan bolalarning sog‘lig‘iga va kamol topishiga ziyon etkazmaydigan va ta’lim olish jarayonini buzmaydigan engil ishlarni o‘qishdan bo‘sh vaqtlarida bajarish uchun ishga qabul qilishga yo‘l qo‘yiladi.

Bu O‘zbekiston Respublikasi qo‘shilgan xalqaro-huquq hujjatlariga to‘la-to‘kis mosdir. Xususan, Xalqaro Mehnat Tashkilotining 1973 yilda eng kichik yosh to‘g‘risidagi 138-Konvensiyasida har qanday ish turida yoki yollanib ishlashda eng kichik yosh - 14 yosh deb belgilanishi mumkinligi ko‘rsatilgan.

Iqtisodiyotchi olimlar yoshlarning iqtisodiy maqomi bilan bog‘liq eng muhim xususiyatlariga alohida e‘tiborni qaratadilar. Bu ularning ish kuchi, sifatida eng yuksak kasbiy va migratsiya faolligi, oila qurish, uy-joyli bo‘lish bosqichida bo‘lganliklari sababli moddiy ne‘matlarga juda kuchli ehtiyojmandliklari, kasb tayyorgarliklarini investitsiyalashning yuksak samardorligi bilan bog‘liqdir.

### 1-jadval

#### Yoshlar mehnat faoliyati turli bosqichlarining xususiyatlari\*

Yosh	Mehnat faoliyatiga jalb etilishi sabablari	Mehnat faoliyatidan ko‘zlangan asosiy maqsadlar	Mehnat faoliyati bilan bog‘liq muammolar
14-15	a) oiladagi moddiy sharoit b) mustaqillikka va o‘zligini namoyon etishga intilish	a) daromad topish b) mehnat ko‘nikmalari hosil qilish	a) ta’limni davom ettirishni to‘xtatish xavfi b) ish haqi miqdorining kamligi
16-17	a) moddiy ehtiyojlarining ortib borishi b) ongli ravishda kasb tanlashga intilish	a) daromad topish b) bo‘lg‘usi mehnat faoliyati to‘g‘risda mufassal tasavvur qilishga intilish	Pul ishlab topish va ta’limni davom ettirish zaruratini anglab etish o‘rtasidagi ziddiyat
18-20	a) to‘g‘ri kasb tanlaganiga ishonch hosil qilishdan	a) daromad topish b) bo‘lajak kasbi ko‘nikmalarini	a) vaqtinchalik ish bilan bandlik b) kafolatli ish bilan band

	manfaatdorlik b) ta'limni davom ettirish bilan bog'liq xarajatlar paydo bo'lishi	egallash	bo'lish ehtiyoji
21-24	a) kasb ta'limini nihoyasiga etkazish b) ijtimoiylashuv jarayoni yakunlanishi	a) daromad topish b) o'z karerasini idrok etish	a) haqiqiy voqelikni anglash b) tashkiliy madaniyatni o'zlashtirish v) jamoada o'z o'rnini egallashga intilish
25-29	a) oila qurish b) kasb ta'limi jarayoni yakunlanishi	a) daromad topish b) o'z kasbida mahoratni oshirishga intilish	a) kasbiy malakasini isbotlash zarurati b) o'z karerasini rejalashtirish

Viloyatda yoshlarning mehnat resurslari hamda ish bilan bandlar tarkibidagi ulushi ham yuqori. Ular viloyatdagi mehnat resurslari tarkibi umumiy miqdoridan ish bilan bandlarning 37,0 %ini tashkil qiladilar.

Viloyat mehnat resurslarining o'sishi, aholi, ayniqsa yoshlarni ish bilan kafolatli ta'minlash uchun ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, qo'shimcha ish joylari tashkil etish chora-tadbirlarini ko'rishni taqozo etadi. Umuman olganda mamlakat, shu jumladan, mintaqa mehnat resurslarini boshqarish tizimi samarali ishlashi ish bilan bandlik organlari ish sifatiga bog'liqdir.

Mehnat bozorining iqtisodiy - ijtimoiy mohiyati va uning jamiyat taraqqiyotidagi rolining tahlili quyidagi xulosalar chiqarish imkonini beradi:

1. Mehnat bozori ish kuchini mamlakat hududlari va iqtisodiyot tarmoqlari hamda davlat yoki xususiy shaxslar egalik qilayotgan korxonalar va tashkilotlar o'rtasida erkin qayta taqsimlanishiga xizmat qilishi kerak.

Shu munosabat bilan M.Yuldashev va N.Xo'jaevlarning fikrlari e'tiborga molik. Ular: "Ish kuchining qayta hosil qilinishi asosan hududiy xususiyatga, uning hajmi va tarkibiga talab esa iqtisodiyot tarmoqlari xususiyatiga egadir. Bu ziddiyatni hal etish uchun ish bilan bandlikni muvofiqlashtirishning kompleks



tizimi, birinchi navbatda marketing funksiyasiga ega tizim shakllantirilishi kerak”<sup>9</sup>, deb hisoblaydilar.

2. Mehnat bozori iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarga ta’sir ko‘rsatishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy tadqiqotlar markazi tahlillariga muvofiq mehnat bozorining rivojlanishi ko‘p jihatdan investitsiya faolligi xususiyatlari va yo‘nalishlariga bog‘liqdir. Agar investitsiyalar asosan texnika vositalari, dastgohlarga sarflanish o‘rniga ishlab chiqarishga yo‘naltirilaversa mehnat bozorida ish kuchiga talab va taklifdagi nomutanosiblikka barham berishning imkoni bo‘lmaydi<sup>10</sup>.

3. Mehnat bozori muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishi uchun inson munosib turmush kechirishiga xizmat qiladigan rivojlangan ijtimoiy infratuzilma, uy-joy va turli xizmatlar bozori mavjud bo‘lishi kerak. O‘z ishi kuchi bilan mehnat bozoriga chiqadiganlar uchun unga boshqa hududda ish taklif etilsa, o‘z turar joyini o‘zgartirish muammo tug‘dirmasligi lozim.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ham davlatning aholi, ayniqsa uning ijtimoiy jihatdan yordamga muhtoj qatlamlari, shu jumladan, yoshlarning ish bilan bandligi darajasini oshirishdagi roli kattadir. Bu yo‘nalishdagi chora-tadbirlar, fikrimizcha, quyidagilardan iborat bo‘lishi lozim:

- aholi, ayniqsa yoshlarni ish bilan bandligini ta’minlash bo‘yicha umummilliy, tarmoq va mintaqaviy dasturlarni ishlab chiqish hamda ular ijrosini ta’minlash;

- iqtisodiy faol aholini kasbga yo‘naltirish yaxlit tizimini shakllantirish va uni amaliyotga joriy etish;

- mehnat faoliyatining ustuvor va innovatsion sohalari uchun kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash bo‘yicha davlat buyurtmalarini shakllantirish tizimini yaratish;

- yoshlarning ish bilan bandligiga ijtimoiy-iqtisodiy, hududiy va demografik jarayonlarning ta’siri doimiy monitoringini yo‘lga qo‘yish hamda

---

<sup>9</sup>Юлдашев М., Хужаев Н. Безработица, занятость, рынок труда и их моделирование. – Т.: “Фан”, 1997. –С. 11.

<sup>10</sup>Журнал “Экономическое обозрение” , 2007 .,№ 3, -С. 22.

shu asosda kadrlar tayyorlash hududiy dasturlariga tegishli qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish.

Mehnat bozorini samarali shakllantirish har bir davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini amalga oshirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. U amaldagi qonunchilik doirasida muayyan tartib - qoidalarni ishlab chiqish hamda ish beruvchilar bilan yollanma ishchilar o‘rtasidagi shartnoma majburiyatlari bajarilishi kafolatini ta‘minlashdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi 1-Prezidenti Karimov I.A. shu munosabat bilan mamlakat taraqqiyotini yuksaltirishga qaratilgan eng muhim va dolzarb maqsad-vazifalari qatorida: “..zamonaviy mehnat bozorini yanada kengaytirish asosida yangi ish o‘rinlari tashkil etish” ni alohida ko‘rsatib o‘tdi.

Iqtisodchi olimlar mehnat bozorini muvofiqlashtirish omillarini chuqur tadqiq etganlar. Neoklassik iqtisodiy nazariya vakillaridan D. Gildyar, M. Feldsteyn, R. Xoll mehnat bozorini bozor iqtisodiyoti qonunlariga amal etuvchi va narx mexanizmi bilan muvofiqlashtiruvchi faol tizim sifatida ta‘riflaydilar. Ularning fikriga binoan ish kuchi bahosi bozor mexanizmlarining amal qilish jarayonida mehnat bozori kon‘yukturasiga bo‘ysungan holda uning ehtiyojiga qarab qimmatlashadi yoki arzonlashadi<sup>11</sup>.

J.M. Keynes esa o‘zining 1936 yilda e‘lon qilingan “Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi” asarida aholining ish bilan bandligini tahlil etish asosida bozor xo‘jaligi iqtisodiyotdagi muvozanatni avtomatik ravishda tiklashga qodir emasligi to‘g‘risidagi xulosaga keladi va shuning uchun iqtisodiyotni tartibga solishga davlat aralashuvi talab etilishini ko‘rsatgan. Bu ish kuchiga samarali talabni ta‘minlash uchun zarurligi haqida Keynes D.M. shunday yozadi: “Ish bilan to‘la bandlikni ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan markazlashtirilgan nazoratni ta‘sis etish, albatta, hukumat an‘anaviy funksiyalarini sezilarli ravishda kengaytirishni talab etadi”<sup>12</sup>.

---

<sup>11</sup>Кураков Л.П. Экономическая теория: Учебное пособие. –М.: “Телиос АРВ”, 1999, -С. 377.

<sup>12</sup>Антология экономической классики. Мальбус Т., Кейнс Д., Ларин Ю.М. –М. “Наука”, 1987. -С. 430

Ammo boshqa iqtisodchi olimlar – M. Fridmen, E. Felps va boshqalar esa bozor iqtisodiyoti o‘z-o‘zini tartibga soluvchi tizim bo‘lib, uning narx mexanizmi ish bilan bandlikning oqilona darajasini o‘zi belgilaydi, deb hisoblaydilar. Ular davlatning iqtisodiyotni tartibga solishga aralashuvi bozorning o‘z-o‘zini muvofiqlashtiruvchi mexanizmini izdan chiqaradi, deb ta’kidlashadi. Har qanday davrda muayyan darajada ishsizlik mavjud bo‘lib, u real ish haqi miqdori tarkibidagi muvozanat bilan muvofiqlashadi... ana shu daraja mehnat bozori tarkibiy xususiyatlari, talab va taklif o‘zgarib turishi, mavjud bo‘sh ish joylari va taklif etilayotgan ish kuchi to‘g‘risidagi axborot qiymatini aks ettirib, “ishsizlikning tabiiy me‘yori” hisoblanadi<sup>13</sup>.

Rossiyalik tadqiqotchi N.V. Vyuxina mehnat bozorini tartibga solish, ish bilan bandlik darajasini oshirish uchun hozirgi sharoitlarda quyidagi mexanizmlardan foydalanish imkoniyatlari mavjudligiga e‘tiborni qaratadilar:

- ish beruvchilarni egiluvchan ish vaqti rejimida mehnat qilish ko‘zda tutiladigan ish o‘rinlari yaratishga rag‘batlantirish;
- muvaqqat ijtimoiy ishlarni tashkil etish;
- o‘rindoshlik asosida ishlashni muvofiqlashtirish;
- fuqarolarning boshqa mintaqalarda ishlash uchun ko‘chib borishlarini rag‘batlantirish;
- ish joylarini kvotalash mexanizmini takomillashtirish;
- mehnatga haq to‘lashning subsidiyalashning turli usullarini qo‘llash<sup>14</sup>.

I.V.Geleta esa mintaqa miqiyosida mehnat bozorini muvofiqlashtirish bo‘yicha olib borilayotgan siyosat yanada takomillashtirilishi kerak, deb hisoblaydi. Tadqiqotchi, birinchidan, mehnat bozorini davlat tomonidan tartibga solish tizimining muayyan darajasini saqlab qolgan holda uning o‘z-o‘zini muvofiqlashtiruvchi mexanizmini shakllantirish va takomillashtirish,

---

<sup>13</sup>Экономика труда.: Учебник /Под.ред.проф.Шлендера П.Э. и проф.Кокина Ю.П. –М.: “Юрист2, 2003, -С. 206-212.

<sup>14</sup>Вьюхина Н.В. Безработица в России и механизм её оптимизации. Сборник материалов 1-ой Всероссийской научно-практической конференции. –Пенза., 2002. -С. 50.

ikkinchidan, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish choralari koʻzda tutilgan aholini ish bilan taʼminlash dasturlarini puxta ishlab chiqish, ularda, ayniqsa, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy va demografik xususiyatlari, mavjud ishlab chiqarish va kasb malakasi salohiyatlarini toʻliq hisobga olish kerakligini uqtiradi<sup>15</sup>.

Mehnat bozorini tartibga solish mexanizmlariga taalluqli ilmiy nazariya va xulosalarni mujassamlashtirgan holda, fikrimizcha, ularni quyidagi uch guruhga tasniflash mumkin:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy. Bu mexanizmlar mehnat bozorida ishga yollanuvchilar, ish beruvchilar davlat manfaatlarini hamda ish kuchiga talab va taklifni, mehnatni tashkil etish va unga haq toʻlashni muvofiqlashtirish maqsadlariga xizmat qiladi.

2. Tashkiliy-huquqiy. Bu mexanizmlar ish bilan bandlik munosabatlarini tartibga solish hamda mehnat bozori faoliyati amaldagi qonunchilikka muvofiq boʻlishini taʼminlashga xizmat qiladi.

3. Psixologik. Bu mexanizm mehnat bozorida ish bilan bandlik darajasini oshirish uchun mehnat motivatsiyasini kuchaytirishni taʼminlashga qaratilgan.

Yoshlar ish kuchiga talab mehnat bozoridagi boʻsh ish oʻrinlari bilan bir qatorda kvotalangan ish oʻrinlari hamda ijtimoiy ishlar dasturlari asosida tashkil etilgan ish oʻrinlarini ham qamrab oladi.

Yoshlar ish kuchi taklifi esa mehnat bozoriga kasbiy tayyorgarlikka ega boʻlgan holda hamda kasbiy tayyorgarligi boʻlmagan chiqayotganlardan iboratdir. Kasbiy tayyorgarlikka ega boʻlmaganlarni mehnat bozori talab etayotgan ixtisoslikka kasbiy taʼlim muassasalarda ham, mehnat organlari tomonidan tashkil etiladigan maxsus kurslarda ham oʻqitish mumkin.

---

<sup>15</sup>Гелета И.В. Совершенствование механизмов регулирования регионального рынка труда. -С. 54-55.

## **II-BOB. O'ZBEKISTONDA YOSHLAR MEHNAT BOZORINING SHAKILLANISH YO'LLARI.**

### **2.1. MUSTAQILLIK VA ERKIN MEHNAT BOZORINING SHAKLLANISHI**

Iqtisodiyotni modernizasiya qilish davrida davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati faqat odamlarning manfaatlarini ishonchli ravishda himoya qilishdangina iborat bo'lmasdan, balki mehnatga yaroqli yoshlarni ish bilan bandligini ta'minlashni ham o'z ichiga oladi. Ayniqsa, aholining o'sishi yuqori sur'atlar bilan borayotgan va o'ziga xos yoshlar tarkibiga ega bo'lgan bizning respublikada ish bilan bandlik masalasi eng muhim muammolardan biri hisoblanadi.

Yoshlarni ish bilan ta'minlash uning takror ishlab chiqarishi uchun zarur shartdir. Chunki kishilarning turmush darajasi jamiyatning kadrlar tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ishga joylashtirish, ishsizlarni moddiy jihatdan qo'llab - quvvatlash uchun sarf qiladigan chiqimlar yoshlarni ish bilan ta'minlanishiga bog'liqdir. Ish bilan bandlik inson ijtimoiy kamolatining eng muhim tomonlaridan birini ochib beradiki, bu uning mehnat sohasidagi va mehnat bilan bog'liq bo'lgan etiyojlarini qondirishga aloqadordir.

Mamlakatimiz 1-Prezidenti I.Karimov ta'kidlab o'tganlaridek: "Aholini ish bilan ta'minlash muammolarini hal etishda ham jiddiy sifat o'zgarishlari ko'zga tashlanmoqda"<sup>1</sup>.

Yoshlarni ish bilan bandligi ularning ish joylari qayerdaligidan qat'iy nazar, ijtimoiy foydali mehnatda qatnashishi yuzasidan o'zaro kirishadigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardir. Ish bilan bandlik munosabatlari, mehnatga layoqatli odamlarning qanchasi va qay darajada ijtimoiy foydali mehnatda qatnashishini ko'rsatadi.

Biroq yoshlarni ish bilan bandlik toifasi faqat iqtisodiy komponenti bilan cheklanmaydi. Ish bilan bandlik, avvalo, ijtimoiy munosabatlardir, ya'ni

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: "O'zbekiston", 2009, 24-bet.

odamlarning jamiyat ichidagi munosabatlaridir, shu bois qandaydir azaliy, bevosita yuzaga kelgan hodisa sifatidagi ijtimoiylik ularning asosiy xususiyati hisoblanadi.

Yoshlarni ish bilan bandlik tushunchasini fuqaroning o'z shaxsiy va jamoat ehtiyojini qondiradigan hamda daromad keltiradigan faoliyati deb tushunish mumkin. Ish bilan bandlikni ijtimoiy, iqtisodiy va demografik jarayonlar tizimida mehnat resurslarini yetishtirishning tabiiy asosi sifatida qarash lozim.

O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarni ish bilan ta'minlash» to'g'risidagi Qonunining 2-moddasida qayd etilganidayek: «Ish bilan ta'minlash – fuqarolarning qonun hujjatlariga zid kelmaydigan, o'z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan, ularga ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan faoliyatdir».<sup>1</sup>

Unumli va ijodiy mehnat qilishga bo'lgan o'z qobiliyatlarini tasarruf etish va qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan har qanday faoliyat, shu jumladan haq to'lanadigan ishni bajarishga aloqasi bo'lmagan faoliyat bilan shug'ullanish mutlaq huquqiy fuqarolarga tegishlidir<sup>2</sup>.

Majburiy mehnat, ya'ni biron-bir jazoni qo'llash bilan tahdid qilish orqali ish bajarishga majburlash taqiqlanadi, qonunda belgilangan hollar bundan mustasno. Kishilarning ixtiyoriy ravishda ish bilan band bo'lmasligi ularni javobgarlikka tortishi uchun asos bo'la olmaydi.

Ish bilan bandlikni ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida qo'yidagicha ta'riflash mumkin: ish bilan bandlik fuqarolarning qonun hujjatlariga zid qilmaydigan o'z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan, ularga ish haqi yoki mehnat daromadi keltiradigan faoliyatdir<sup>3</sup>.

Iqtisodiyotning sifat jihatidan oldingisidan farq qiluvchi har bir rivojlanish bosqichi uchun ish bilan ta'minlashning muayyan modeli

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi Qonuniga sharhlar. – T.: «Sharq», 2004, 19 bet.

<sup>2</sup> Mamaraimov Q. «Qishloq aholisi ish bilan bandligi» Bozor, pul va kredit 2009, oktyabr, 70-bet.

<sup>3</sup> Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti (darslik). – T.: «Mehnat», 2009, 274-b.

(konsepsiyasi) mos keladi, chunki uning asosiy xususiyatlari jamiyat faoliyatining muhim jarayonlarini ochib beradi.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, jamiyat muammolari ichida insonning shaxsini, talab-ehtiyojlarini hisobga olmasdan hal qilishga urinish omadsizlikka mahkum etadi. Shuning uchun avvallari olimlar ish bilan bandlik muammolarini ko'rib chiqayotganlarida asosan, uning iqtisodiy jihatlariga e'tibor bergan bo'lsalar, keyingi paytda ish bilan bandlikning ijtimoiy jihatlarini to'g'risida tobora ko'proq gapirayotganligi bejiz emas.

Yoshlarning ish bilan bandlik konsepsiyasi – jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muayyan bosqichidagi ish bilan ta'minlanishning xususiyatini ochib beradigan qarashlar, tasavvurlar tizimidir.

Bunday nazariy tushunchalar markaziga uni rivojlantirishning ijtimoiy bozor tipidagi davlat uchun xos bo'lgan obyektiv jarayonlarini hisobga oluvchi ish bilan ta'minlanishning shakllanishi qo'yiladi. Bu o'z navbatida muayyan davr mobaynidagi qo'yilgan maqsadlarga erishishning real imkoniyatlari bilan cheklanmaydi.

O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarni ish bilan ta'minlash» to'g'risidagi qonunga muvofiq qo'yidagilar ish bilan ta'minlangan deb hisoblanadi:

– yollanib ishlayotgan, shu jumladan ishni to'liqsiz ish vaqtida haq evaziga bajarayotgan, shuningdek haq to'lanadigan boshqa ishga, shu jumladan vaqtinchalik ishga ega bo'lgan fuqarolar;

– betobligi, mehnat ta'tilida, kasbga qayta tayyorlashda, malaka oshirishda ekanligi, ishlab chiqarishning to'xtatib qo'yilganligi munosabati bilan, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq vaqtincha ish joyi saqlanib turadigan boshqa hollarda vaqtincha ish joyida bo'lmagan fuqarolar;

– o'zini ish bilan mustaqil ta'minlayotgan fuqarolar, shu jumladan yuridik shaxs tashkil qilmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan fuqarolar, kooperativlarning a'zolari, fermerlar va ularning ishlab chiqarishda qatnashayotgan oila a'zolari;

– qurolli Kuchlarda, Milliy xavfsizlik xizmati va ichki ishlar organlari va qo'shinlarida xizmatni o'tayotgan shuningdek muqobil xizmatni o'tayotgan fuqarolar;

– ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olayotgan fuqarolar;

– qonun hujjatlariga muvofiq faoliyat olib borayotgan jamoat birlashmalari va diniy muassasalarda ishlayotgan fuqarolar<sup>1</sup>.

Hozirgi vaqtda ish bilan band yoshlarga barcha yollanib ishlayotgan xodimlar, o'quvchilar, xarbiy xizmatchilar bilan bir qatorda o'zini o'zi mustaqil ravishda ish bilan ta'minlaydigan fuqarolar va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan fuqarolar kiritilgan.

Shuningdek, foyda yoki oilaviy daromad olish uchun ish bilan band bo'lganlar toifasiga kiradi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofiq qo'yidagi sabablarga ko'ra vaqtinchalik ish joyida bo'lmagan fuqarolarning ish joyi saqlanib qoladi va ular ish bilan ta'minlangan deb hisoblanadilar:

- davlat va jamoat vazifalarini bajarayotgan vaqtda;
- ish beruvchi va mehnat jamoasi manfaatlariga doir vazifalarni bajarganda;
- jamiyat manfaatlariga doir harakatlar qilganda.

O'zini ish bilan mustaqil ta'minlaydigan fuqarolar toifasiga qo'yidagilar kiradi:

- tadbirkorlar;
- fermerlar va ularning ishlab chiqarishda ishtirok etayotgan oila a'zolari;
- dehqon xo'jaligining ishlab chiqarishda qatnashayotgan oila a'zolari;
- kooperativlarning a'zolari;
- yozuvchilar, rassomlar va boshqalar.

---

<sup>1</sup> Абдурахмонов Қ.Х. ва бошқалар. Меҳнат иқтисодиёти ва социологияси. Т.: Ўқитувчи, 2004. 82-б.



Iqtisodiy jihatdan faol bo'lgan yoshlar uchun, shu jumladan ishsizlar uchun ish bilan ta'minlash maqomini belgilab olish muhimdir. Odatda besh maqom bor.

1. Yollanma xodimlar – bular korxonalar rahbariyati bilan mehnat faoliyati shartlari to'g'risida tuzilgan yozma kontrakt (shartnoma) yoki og'zaki bitim bo'yicha ishlaydigan shaxslar bo'lib, ular ana shu faoliyat uchun yollanish vaqtida kelishib olingan ish haqini oladilar.

2. Yakka tartib asosida ishlaydiganlar – mustaqil ravishda faoliyat olib boradigan, o'zlariga daromad keltirayotgan ish bilan shug'ullanadigan, faqat qisqa muddatga yollanma xodimlardan foydalanadigan yoki foydalanmaydigan shaxslar.

3. Ish beruvchilar – o'zining hissadorlik jamiyatini, xo'jalik shirkatini va hokazoni boshqaradigan yoki buning uchun davlat tomonidan vakil qilingan shaxslar. Ish beruvchi o'z funksiyalarini yollanma boshqaruvchiga to'liq yoki qisman topshirib qo'yish, korxonaning muvaffaqiyatli ishlashi uchun javobgarlikni o'zida olib qolish mumkin.

4. Oilaviy korxonalarining haq to'lanmaydigan xodimlari – qarindoshga tegishli bo'lgan oilaviy korxonada haq olmasdan ishlaydigan xodimlardir.

5. Ish bilan ta'minlash maqomi bo'yicha tasniflashga to'g'ri kelmaydigan shaxslar – ilgari o'zlariga daromad keltiradigan mehnat faoliyati ta'minlanishning biron – bir maqomiga mos kelmaydigan shaxslar ham kiritiladi.

«Yoshlarni ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi qonun 1992 yil 13 yanvarda qabul qilingan bo'lib, unga 1998 yil 1 mayda ba'zi o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritildi. qonunda yoshlarning ish bilan bandligining asosiy prinsiplari ifodalab berilgan, bu tamoyillar ish bilan bandlik munosabatlariga bozor xususiyatidan kelib chiqadi va u bir necha tamoyillar bilan ifodalanadi. Birinchi tamoyil fuqarolarning umumiy va ijodiy mehnat qilishga bo'lgan o'z qobiliyatlaridan foydalanishdan iborat favqulodda huquqidir. Mehnat qilishga

majbur etishga (qanday shaklda bo'lmasin) yo'l qo'yilmaydi. Faqat qonunda alohida belgilangan hollar bundan mustasnodir<sup>1</sup>.

Shunday qilib, respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida umuminsoniy qadriyatlarni mustahkamlash uchun muayyan qadam qo'yilgan bo'lib, bu qadriyatlar orasida eng muhimi **mehnatning ixtiyoriyligidir**. Endilikda ijtimoiy mehnatda ishtirok etish kerak emasligini tanlashdan iborat ustuvor huquq insonning o'ziga tegishlidir.

Milliy iqtisodiyotda, yoshlarni mehnat bilan ta'minlash endilikda amalda ijtimoiy foydali faoliyatining birdan-bir sohasi hisoblanmaydi. Mehnatning umumiyliги huquqiy burch sifatida mustahkamlangan vaqtda u ana shunday edi. Mehnat sohasi ijtimoiy foydali ish bilan bandlikning o'qish, uy-ro'zg'or ishlari, bolalarni tarbiyalash va hokazolar kabi teng huquqli va hamma uchun qulay sohalardan biriga aylanmoqda. Ixtiyoriy ish bilan bandlikka barham berish sababi bitta – u ham bo'lsa, tirikchilik vositalarining g'ayriqonuniy manbaidir.

O'zining mehnatga bo'lgan qobiliyatidan foydalanishdan iborat favqulodda huquq tamoyili insonning o'ziga maqul bo'lgan joyda o'zi xohlagan vaqt mobaynida ishlash huquqini nazarda tutadi. Har kim o'zi uchun qulay vaqt va ish bilan bandlik usulini mustaqil tanlashi mumkin. Jinsi, yoshi, millati va boshqa belgilardan qat'i nazar, hammaga doimiy, qisman, vaqtincha, ahyon-ahyonda bo'ladigan ish bilan bandlik, o'rindoshlik bilan ishlash ish vaqtini tashkil etishishning moslashuvchan grafiklariga xosdir. Kasb tanlashdagi huquqning cheklanmaganligi va iqtisodiyot sohasalaridan birida mehnat qilish huquqi ham muhim hisoblanadi (bunga yakka tartibda mehnat qilish ham kirishi mumkin).

Favqulodda tanlash huquqi haqida gapirilganda bu huquqni jamiyatda har kimning u yoki bu ish bilan bandlik turi yoki kasbga bo'lgan ehtiyojini qondirish majburiyati bilan tenglashtirish to'g'ri bo'lmaydi. Jamiyat barchaga o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish uchun teng huquqiy shart – sharoitlar yaratib

---

<sup>1</sup> Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti (darslik). – T.: "Mehnat", 2009, 276-b.

berishi kerak. Masalan, agar biror kishi tadbirkor bo'lmoqchi ekan, jamiyat uning uchun huquqiy shart – sharoitlar berishi lozim, lekin bu kishi tadbirkor bo'lish-bo'lmasligi uning shaxsiy fazilatlariga bog'liqdir.

Bunday ish bilan bandlikning ikkinchi tamoyili – fuqarolarning mehnat huquqini ruyobga chiqarish uchun davlatning shart-sharoitlar yaratib berish kerakligi oydin bo'ladi. Ish bilan bandlik siyosatiga uni qattik tartibga solishdan voz kechish, ijtimoiy sohada mehnat qilishning majburiy emasligi, ijtimoiy foydali mehnat qilishning har qanday sohasini tanlash erkinligi va ixtiyoriyligi orqali inson manfaatlarini va ehtiyojlarini namoyon bo'lishiga yordam berish asos qilib olingan.

Davlatning ish bilan bandlikka ko'maklashish tamoyili asosida mehnat qilish huquqini ro'yobga chiqarish uchun shart – sharoitlar yaratib berishi ijtimoiy ishlab chiqarishning iqtisodiy jihatdan erkin ishtirokchilari iqtisodiy xulq-atvoriga bevosita usullar bilan tuzatish kiritishdan iboratdir. Bunda davlatning ish bilan bandlikka bevosita ta'sir ko'rsatish choralari rag'batlantiruvchi tadbirlarining ustuvorligiga asoslanadi. Bu o'rinda mehnatkashlarning tadbirkorlar va hududlarning ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarini hamda erkinliklarini buzadigan vositalar bo'lmasligi kerak. Ish bilan bandlikka ta'sir ko'rsatishning o'zini ochib berish asosida uni (bandlikni) istalgan yo'nalishda shakllantirish jarayonini bevosita to'g'ri yo'lga solish yotadi. Ish bilan bandlikka ko'maklashish tamoyili ijtimoiy mehnat munosabatlari subyektlarining taraqqiyot yo'nalishlarini ishlab chiqishda va uni tartibga solishda faol va manfaatdorlik bilan ishtirok etishlaridan ham iboratdir. Bu subyektlar yollanma xodimlar, ish beruvchilar bo'lib ular kasaba uyushmalariga, assosiasiyalar va ittifoqlarga birlashganlar.

Bu kuchlarning ish bilan bandlikni rivojlantirishda yaqindan o'zaro yordam berishlari ish bilan bandlikning holatiga faol ta'sir ko'rsatib, uning sifat jihatlarning har tomonlama yaxshilanishiga yordam beradi. Bunday jihatlarga ish bilan band yoshlarning ma'lumot va kasb-malaka tarkibi, uning tarmoq va

demografik tuzilishi, yuqori ijtimoiy iqtisodiy harakatchanlik, raqobatdoshlik va shu kabilar kiradi.

Ish bilan bandlik masalalarini ko'rib chiqayotganda mehnat va ish bilan bandlik o'rtasidagi aniq farqni ajrata bilish kerak. Mehnat – insonning o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lgan faoliyati bo'lib, harakatlarni anglatganligi, kuch-quvvat sarflanishi, natijadorlik, ijtimoiy foydalilik va hokazolar shular jumlasiga kiradi. Mehnat vaqt xususiyatiga ega, u bo'linadi va dam olish bilan almashinib turadi. Mehnat – ishchi kuchini ishlab chiqishda ishlatish jaryonidir. Ish bilan bandlik insonning mehnat qilish munosabati bilan va mehnat sohasidagi ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq holda kechadigan ijtimoiy rivojlanishning muhim tomonlaridan biridir. Mehnatdan farqli ularoq, ish bilan bandlikni odamlarning aniq ish joyidagi amaliy faoliyatiga tenglashtirib bo'lmaydi. Ish bilan bandlik mehnatga layoqatli odamlarning ish bilan qanday ta'minlanganligini ko'rsatadi. Boshqacha qilib aytganda, odamni ish bilan band hisoblash uchun u biron-bir jamoaning a'zosi bo'lishi yoki o'z ishini yaratishi kerak.

**2016 YIL 13-DEKABRDA BO'LIB O'TGAN O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI SENATINING YALPI YIG'ILISHIDA  
“2017 YILDA AHOLI BANDLIGI DASTURI” QABUL QILINDI.**

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov tomonidan aholi bandligini ta'minlash masalasi Hukumatning eng muhim vazifasidan biri sifatida belgilab berilgan.

Shundan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosatining 2016 yil 10 oktyabrda bo'lib o'tgan yig'ilishida O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonlaridan berilgan taklif va tavsiyalar asosida Dastur loyihasi qayta ishlab chiqilib, Hukumat yig'ilishida tasdiqlandi.

2017 yilda Aholi bandligini ta'minlashga bo'lgan ehtiyoj mutasaddi vazirlik va idoralar bilan birga har bir qishloq (mahalla) bo'yicha demografik

holat, jumladan aholining yoshi, kasbi, bandligi, ijtimoiy ahvoli, mehnatga layoqati, ayollar bandligi va boshqa ko'rsatkichlari birma-bir o'rganildi hamda hududlardagi joriy mehnat bozori holati, shu jumladan 2017 yilda ish joylariga muhtoj bo'lgan aholining haqiqiy soni kasblar kesimida aniqlandi.

Mehnat bozorining kutilayotgan ehtiyojidan kelib chiqib, ya'ni kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari, chetdan qaytadigan mehnat migrantlari, ish qidirayotgan fuqarolar, shuningdek iqtisodiy jarayonlar natijasida ish joyini yo'qotadigan xodimlarni ham hisobga olgan holda barcha tumanlar va shaharlar bo'yicha 2017 yilda aholi bandligini ta'minlashga oid Buyurtmanoma shakllantirildi.

Ushbu Buyurtmanomalar asosida mahalliy hokimliklar hamda Iqtisodiyot vazirligi hamkorligida kollej bitiruvchilari, mehnat migrantlari, ishdan bo'shatilgan ishchilar soniga mos keladigan ko'lamlarda aholi bandligini ta'minlash parametrlari ishlab chiqildi.

Dastur loyihasini ishlab chiqish jarayonida, haqiqatda ish o'rinlari yaratish imkoni mavjud bo'lgan sohalar, tarmoqlar, ayniqsa investitsion dasturlar doirasida yaratiladigan yangi korxonalar, shuningdek ishlamayotgan korxonalar faoliyatini tiklash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, oilaviy biznes sohalarida mavjud bo'lgan ichki imkoniyatlar maksimal darajada hisobga olindi.

Dastur loyihasida 2017 yilda mehnat bozoriga ta'sir etadigan demografik omillar, jumladan aholining o'sishi, pensiyaga chiqish va tabiiy qisqarish omillari inobatga olingan.

Bunda, shakllantirilgan buyurtmanomalar asosida kelgusi yil Dasturi prognoz parametrlarini belgilashda Respublika bo'yicha mehnat bozoriga ilk bor 508,8 mingdan ziyod yoshlar (kollej va oliy o'quv yurtlarini bitirib) hamda 145,5 ming nafar qaytib kelayotgan mehnat migrantlari hisobga olingan.

Bundan tashqari, 111,0 ming nafar ishchilar iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar natijasida ish o'rinlarini yo'qotadi, 7,4 ming nafar fuqarolar jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etiladi, 18,3 ming harbiy xizmatchilar muddatli harbiy xizmatni o'tab ish qidiruvchilar qatoriga kiradilar.

Ruxsatingiz bilan, endi 2017 yilda aholi bandligi Dasturi loyihasida koʻzda tutilgan tadbirlar toʻgʻrisida axborot bersam.

Birinchiidan, Dastur parametrlari keyingi yilga belgilangan makroiqtisodiy prognoz koʻrsatkichlari, byudjet, soliq va investitsiya siyosatining asosiy yoʻnalishlari, mahalliyashtirish, qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini qayta ishlash, qurilishi, ijtimoiy va bozor infratuzilmalarini rivojlantirish dasturlari bilan oʻzaro uzviy bogʻlangan.

Dasturga muvofiq kelgusi yilda 389,3 ming nafar fuqaroning yangidan tashkil etiladigan barqaror ish oʻrinlarida bandligi taʼminlanadi.

Bunda investitsiya, mahalliyashtirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish hisobiga - 345 308 ish oʻrni yaratilishi koʻzda tutilmoqda. Shundan:

- sanoatda 10 102 ta loyihada 131,1 mingta yaratilishi belgilanmoqda.

Jizzax shahridagi “Elegans Teks” qoʻshma korxonasi tomonidan umumiy qiymati 25 mlrd.soʻmga teng boʻlgan ip-kalava hamda mato ishlab chiqarish loyihasida 1000 ta, “Guandong Bohua Keramiks” xorijiy korxonasi tomonidan 40 mln. AQSh dollarga teng boʻlgan keramik plitalar va keromaganit ishlab chiqarish loyihasida 800 ta;

Andijon viloyatining Buloqboshi tumanida “Shangfeng Bridj of frendship” qoʻshma korxonasi tomonidan umumiy qiymati 26,5 mln. AQSh dollariga teng boʻlgan sement ishlab chiqarish loyihasida 400 ta ish oʻrinlari yaratiladi.

- Xizmat koʻrsatish va servis sohasini rivojlantirishda 16 814 ta loyihada 69,5 mingtani tashkil etadi.

Tuman (shahar) hokimliklari tomonidan yengil konstruksiyali qurilmalar asosida quriladigan xizmat koʻrsatish obʻektlari tashkil qilish uchun, kichik hajmdagi yaʼni 20-100 kv metrgacha boʻlgan tashlandiq yer maydonlarini berish yaxshi natija bermoqda.

Jumladan, Termiz shahrini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi doirasida shahardagi 16 mahallada 300 dan ortiq xizmat koʻrsatish obʻektlariga

talab aniqlanib, bugungi kunda 100 dan ortiq fuqarolarga yengil konstruksiyali qurilmalar asosida xizmat ko'rsatish ob'ektlarini qurish uchun shahar hokimining qaroriga asosan 1,2 ga yer maydonlari ajratilib, 600 ta ish o'rinlari yaratilishi kutilmoqda.

Bu tajribani yaxshi natija berganini inobatga olib 2017 yilda ham tadbirkorlarga kichik hajmdagi yer maydonlari ajratish davom ettiriladi.

Qishloq xo'jaligi sohasida 10 058 ta loyihada 55,8 mingta, bunda asosan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni maqbullashtirish orqali chorvachilikda 2 992 ta loyihada 18 550 ta, parrandachilikda 792 ta loyihada 4 756 ta, bog'dorchilik, yangi turdagi ko'chatchilikda 1 126 ta loyihada 7 174 ta, baliqchilikda 821 ta loyihada 3 079 ta, uzumchilikda 891 ta loyihada 4 366 ta, intensiv bog'lar, issiqxonalar, muzlatgichlarni tashkil etish bo'yicha 1 249 ta loyiha hisobiga 7 480 tani tashkil etadi.

Qurilish va infratuzilma loyihalarida 88,9 mingta (ko'p qavatli va qishloq joylarida uy-joylarni qurish yo'l transport va muxandislik kommunikatsiya infratuzilmasi, qurilish hamda qurilishning boshqa yo'nalishlarida);

Misol: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 oktyabrdagi «2017–2021 yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo'yicha arzon uy-joylar qurish dasturi to'g'risida»gi qarori qurilish sohasida ish o'rinlarini yanada ko'payishiga imkon yaratdi. Birgina 2017 yilda Dasturni moliyalashtirishga 2 trillion 121,5 milliard so'm yo'naltirilib, 15 mingta yangi uy va kvartiralar quriladi. Buning uchun yangidan tashkil etiladigan 500 dan ortiq qurilish korxonalarida qo'shimcha 30 mingga yaqin ish o'rinlari yaratiladi.

Ishlamayotgan korxonalar faoliyatini tiklash, davlat mulki ob'ektlarini xususiylashtirish va ijaraga berish hisobiga 44,0 mingta yaratilishi belgilangan.

Dasturga asosan Zarafshon shahar hokimligi balansidagi tugatilgan sobiq "Qizilqum Manufaktura" qo'shma korxonasiga qarashli bo'lgan bino va inshootlarini "Orianna yarns textile" MChJga investitsiya kiritish sharti bilan

“nol” xarid qiymatida berilishi hisobiga 3644 mln. soʻmlik oʻz mablagʻlarini loyihaga yoʻnaltirish evaziga 150 ta;

Namangan shahridagi boʻsh turgan yer maydoni negizida “Tekstil libos” MChJ tomonidan tikuvchilik faoliyatini yoʻlgan qoʻyish uchun jami 3,0 mlrd. soʻm investitsiya hisobiga (oʻz mablagʻi 1,0 mlrd. soʻm, tijorat banki krediti 2,0 mlrd. soʻm) 100 ta yangi ish oʻrinlari yaratilishi belgilangan.

Dasturda Navoiy, Toshkent va Jizzax viloyatlaridagi erkin iqtisodiy zonalarda transport, qurilish, ijtimoiy infratuzilma tarmoqlari bilan uzviylikda yangi loyihalarni amalga oshirish orqali ish oʻrinlari tashkil etilishiga eʼtibor qaratilmoqda. Misol uchun, Angren erkin iqtisodiy zonasi hududida “Gongkong texnoloji KoLTD” xorijiy korxonasi tomonidan qiymati

7,1 mln. AQSh dollariga teng boʻlgan dekorativ keramik plitkalar va santexnika mahsulotlari ishlab chiqarish loyihasida 350 ta ish oʻrinlari tashkil etiladi.

Urgut va Gʻijduvon tumanlari hamda Qoʻqon shahrida tashkil etiladigan erkin iqtisodiy zonalar bu boradagi imkoniyatlarni yanada kengaytiradi.

Bundan tashqari boshqa yoʻnalishlarda Boysun tumanida Farmatsevtika mahsulotlari hamda Yangiyer shahrida kichik sanoat zonasi tashkil etish boʻyicha qaror loyihalari tayyorlanmoqda.

Shuningdek, Dastur doirasida norasmiy sektorda ishlayotgan fuqarolarni rasman ishga olinishini taʼminlashga alohida eʼtibor qaratiladi. Bunda, berilgan imkoniyatlarni ish beruvchilarga tushuntirish orqali ish oʻrinlarini tashkil etish va legallashtirish imkoniyatlaridan keng foydalaniladi.

Ikkinchidan, Dastur loyihasiga muvofiq, yakka tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirish, ular tomonidan mehnat shartnomalari asosida qoʻshimcha xodim yollash hisobiga – 97,7 ming kishining bandligi taʼminlanadi;

Uchinchidan, aholini qishloq xoʻjaligi, xususan paxtachilik (paxtani chopiq qilish, chekanka, yigʻim – terim ishlarida), gʻallaga ishlov berish, begona oʻtlardan tozalash, pillachilik, qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini qayta ishlash, quritish, qadoqlash va konservalashda, xususiy sektordagi uy-joylar qurilishi,



shuningdek, yo‘l qurilishi, ijtimoiy va bozor infratuzilmasi ob’ektlaridagi mavsumiy va vaqtinchalik ishlarda yillik o‘rtacha hisobda 199,1 ming kishining bandligi ta’minlanadi.

Hunarmandchilik, oilaviy tadbirkorlik hamda shaxsiy yordamchi dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida, o‘zi-o‘zini band qilish orqali 308,6 ming nafar aholining bandligini ta’minlashga erishiladi.

Korxonalarni optimizatsiyalash bankrot qilish va tugatish, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlikda 205 mingta ish o‘rinlari tugatilishi hamda mehnat bozorida 133,1 mingta ish o‘rinlari tabiiy (xodimlarni pensiyaga chiqishi, vafot etishi, ko‘chib ketishi natijasida) bo‘shashi va 136,7 mingta vakant ish o‘rinlari mavjudligini hisobga olgan holda 2017 yilda ishsizlik darajasini xalqaro standartlarga ko‘ra maqbul bo‘lgan 5-6 foiz atrofida saqlab qolish imkonini beradi.

To‘rtinchidan, Iqtisodiyot vazirligi, tijorat banklari hamda tegishli vazirlik, idoralar bilan birgalikda hududlardagi ichki imkoniyatlar o‘rganildi va ularni ishga solish maqsadida mehnat bozoridagi vaziyat murakkab bo‘lgan 34 tumanda maxsus chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqiladi.

O‘zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzalarida “Aholini ish bilan ta’minlash biz uchun nafaqat iqtisodiy, ayni paytda katta ijtimoiy ahamiyatga egadir. Hokimliklar, vazirlik va idoralar, ish beruvchi tashkilotlar bilan bir qatorda bank muassasalari ham bu ishga yanada faol jalb etilishi kerak. Aholi bandligini hal etishda turizmni rivojlantirish bo‘yicha katta imkoniyatlarni ham ishga solishimiz lozim” deb ta’kidlab o‘tdilar.

Dastur doirasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlariga tijorat banklari tomonidan 15,8 trln. so‘mdan ortiq mablag‘ yo‘naltirish belgilangan. Bu esa 2016 yilga nisbatan 25 foizga ko‘p.

Xususan, ajratiladigan kreditlarning salmoqli qismi Milliy bank (2 385,4 mlrd.so‘m), Asakabank (1 546,8 mlrd so‘m), Agrobank (1 312,9 mlrd so‘m),

Xalq banki (1 250,8 mlrd so‘m), Ipotekabank (1 144,4 mlrd so‘m), Mikrokreditbank (1 131,5 mlrd so‘m), O‘zsanoatqurilishbanki (1 121,6 mlrd so‘m) hissasiga to‘g‘ri keladi.

Dasturda nafaqat dunyoga tanilgan tarixiy markazlarimiz bo‘lmish Samarqand, Buxoro, Xiva va Qo‘qon shaharlarida turizm infratuzilmasini rivojlantiribgina qolmasdan, olis va tog‘li hududlarda turizm va ekoturizmni tashkillashtirish, dorivor o‘simliklarni yetishtirish, yig‘ish va qadoqlash bo‘yicha dasturlar ishlab chiqish ko‘zda tutilmoqda.

Bu borada hozirda Surxondaryo viloyatining Boysun va Uzun tumanlari ichki imkoniyatlari o‘rganilib, turizmni rivojlantirish bo‘yicha katta imkoniyatlar mavjudligi aniqlandi, shu asosda ushbu tumanlarni rivojlantirish dasturi ishlab chiqilmoqda.

Bunda, tog‘ oldi hududlaridagi qishloqlarda 10-15 ta xonadonlarda sayyohlarga xizmat ko‘rsatish uylari (gostevoy domlar) tashkil etilib ya‘ni uyning bitta yoki ikkita xonasi devorlari so‘zana, adras bilan bezatilib, ko‘rpacha to‘shalib, xontaxta qo‘yilib, tualet va oshxonaning sanitar holatlari tartibga keltirilib, chet ellik sayyohlarga tabiiy manzaralarni ko‘rsatish bilan birga non yopish, milliy taomlarni tayyorlash, milliy urf-odatlar bilan tanishtirish kabi xizmatlar ko‘rsatilishi rejalashtirilmoqda.

Bu esa chet eldan keladigan sayyohlar oqimini yanada kengaytirish imkonini beradi. Bu singari kichik loyihalarni moliyalashtirish uchun unchalik katta mablag‘ talab etilmasada ko‘plab ish o‘rinlari yaratish imkoniyatlarini beradi.

O‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limi markazi, Savdo sanoat palatasi, yangi tashkil etilgan Turizmni rivojlantirish Davlat qo‘mitasi va tijorat banklari bilan birga ushbu qishloqlardagi yoshlar va aholi uchun sayyohlarga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha qisqa muddatli o‘quv kurslari tashkil etish rejalashtirilib, videoqo‘llanma tayyorlanmoqda.

Beshinchidan, Dasturni amalga oshirish doirasida ta‘lim muassasalarining bitiruvchilarini ishga joylashtirishga alohida e‘tibor qaratilgan.

Dasturga muvofiq, yangi yaratiladigan, mavjud bo‘sh (vakant) va zahira qilinadigan (kvota) ish o‘rinlariga kasb-hunar kollejlari va oliy ta‘lim muassasalarining qariyb 508,8 ming nafar bitiruvchisini ishga joylashtirish mo‘ljallangan.

Har bir tuman va shahar kesimida bitiruvchilar yashash manzili, olayotgan mutaxassisligi, hududdagi imkoniyatlar va ushbu hududda yaratilayotgan ish o‘rinlarining yo‘nalishlari bilan bog‘lab chiqildi.

Ayni paytda, 2017 yilgi asosiy vazifalarimiz sifatida:

-bitiruvchilarni birlashtirish ishlarini puxta tashkil etish;

- bitiruvchilar bandligini ta‘minlashda yangi samarali shakllar va uslublarni davom ettirish;

- bitiruvchilar bandligini ta‘minlashda belgilangan imtiyozlardan kengroq foydalanish;

- bitiruvchilarga o‘z biznesini tashkil etishlari uchun mikrokreditlar ajratish amaliyotini davom ettirish, 2017 yilda 24 mingdan ortiq bitiruvchiga

350 mlrd. so‘m mablag‘ yo‘naltirish belgilangan.

Dastur doirasida Bandlikka ko‘maklashish markazlari tomonidan 275 ming nafardan ortiq band bo‘lmaganlarning bo‘sh, zahira va yangi ish o‘rinlariga ishga joylashishlarida ko‘maklashiladi, 420 ming nafar fuqaroga mehnat qonunchiligi bo‘yicha bepul maslahatlar beriladi.

Shu bilan birgalikda, band bo‘lmaganlarga, birinchi navbatda yoshlar va xotin-qizlarga kasbga qayta tayyorlash xizmatlari ko‘rsatiladi.

Bunda, Toshkent va Samarqand shaharlaridagi kasb-hunarga o‘qitish markazlari imkoniyatlari ishga solinadi.

Birgina Toshkent shahridagi Kasb-hunarga o‘qitish markazida bugungi kunga qadar 2 ming nafardan ortiq band bo‘lmagan fuqarolar avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatish, metallarni qayta ishlash, elektrotexnika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo‘nalishlarida kasb-hunarga qayta o‘qitildi va to‘liq ishga joylashtirildi.

2016 yil sentyabrdan o‘z faoliyatini boshlagan Samarqand shahridagi kasb-hunarga o‘qitish markazida mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan 4 ta yo‘nalish bo‘yicha 240 nafar band bo‘lmaganlar kasbga qayta o‘qitilmoqda.

Shahrisabz shahrida tashkil etiladigan o‘quv markazining loyihalashtirish ishlari yakunlanib, qurilish ishlari boshlandi va bu markaz 2018 yilda ishga tushiriladi. Urganch va Qo‘qon shaharlarida xuddi shunday o‘quv markazlarini 2019 yilda tashkil etish bo‘yicha Koreya Xalqaro Hamkorlik Agentligi (KOICA) bilan kelishildi, hozirda bitim imzolash jarayonida, Buxoro va Termiz shaharlarida esa 2020 yilda tashkil etish rejalashtirilmoqda.

Yana bir muhim yo‘nalish bu Tashqi mehnat migratsiyasi masalasi, Bunda birinchi Prezidentimiz tomonlaridan belgilab berilgan 5 prinsip asosida (ish joyi va mehnat sharoiti, ish haqi, turar joy bilan ta‘minlash, malakali tibbiy xizmat, xavfsizligi ta‘minlanganligi) chetga ishlash uchun yuborish bo‘yicha jadal ishlar olib borilmoqda. Polsha, Yaponiya, Rossiya davlatlarining yirik ish beruvchilari bilan muzokaralar olib borilib, bitim imzolash choralari ko‘rilmoqda.

Dasturga muvofiq, barcha hududlarni qamrab olgan holda, band bo‘lmagan aholi, kollej va oliy ta‘lim muassasalari bitiruvchilari va migrantlar uchun 1000 dan ortiq yarmarkalar tashkil etish rejalashtirilgan.

Ushbu yarmarkalar sifati va natijadorligini yanada oshirish maqsadida 2 ta yo‘nalishda, ya‘ni yoshlarga biznesni boshlash va ishga joylashish imkoniyatlariga alohida e‘tibor beriladi. Yarmarkani o‘tkazish to‘g‘risida 1 oy oldin tuman hokimining qarori qabul qilinishi va ommaviy axborot vositalari orqali e‘lon (reklama) berilishi, ish beruvchilar bilan oldindan ishlash tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Bundan tashqari, yarmarkalar joriy etilgan yangicha tizim orqali bevosita kollejlarda va sanoat maydonlarida tashkil etilib, bitiruvchilar o‘sha joyning o‘zida ish beruvchilarga mehnat ko‘nikmalari va mahoratlarini ko‘rsatish imkoniyatlari ham yaratilib berilmoqda.

Misol uchun, Samarqand, Buxoro, Andijon, Toshkent, Xorazm viloyatlaridagi yirik korxonalarining ishlab chiqarish maydonlarida tashkil

etilgan yarmarkalarda bitiruvchilarga ish beruvchilar oldida g'isht terish, bo'yoqchilik va payvandlash va tikuvchilik bo'yicha mahoratlarini namoyish etishdi va joyida ishga qabul qilindi.

Bundan tashqari, internet tarmog'ida yangi interaktiv xizmatlar joriy etilib, kelgusida yanada takomillashtiriladi. Mehnat vazirligi mehnat.uz saytida tashkil etilgan interaktiv xizmat orqali mahalla raislari va kollej direktorlariga o'zining mahallasi yoki o'quv muassasasida yarmarka o'tkazishga Buyurtma berish, fuqarolarga ishga joylashish bo'yicha inspektor maslahat berishi uchun aholiga maqul vaqtda taklif etilib va vazirlikning 24 soat davomida ishlaydigan call-markazi (200 06 00 raqami orqali) faoliyati yo'lga qo'yilib, fuqarolar uchun onlayn maslahat berish imkoniyatlari yaratildi.

2017 yilda aholi bandligi Dasturi ijrosini ta'minlash va monitoringini amalga oshirishda quyidagi choralar ko'riladi.

Birinchidan, viloyat va tuman hokimlari boshchiligidagi Ishchi komissiyalar faoliyati "Aholi bandligi dasturi bajarilishini muvofiqlashtirish bo'yicha ishchi komissiyalar to'g'risida"gi yangi qabul qilingan nizom asosida yanada kuchaytiriladi.

Ikkinchidan, ish o'rinlarini tashkil etilganligini haqqoniyligini ta'minlash borasida qo'shib yozishlarga chek qo'yish maqsadida muhrlar bilan tasdiqlangan ma'lumotlardan voz kechilib, tashkil etilgan ish o'rinlari hisobi Soliq qo'mitasi va Xalq bankining elektron axborot tizimlaridan foydalangan holda INN va INPS raqamlari orqali amalga oshiriladi.

Uchinchidan, xususiy sektorni mehnat bozorida ishga joylashtirish xizmatlarini ko'rsatishga jalb qilish maqsadida rekruting xizmatlarini tashkil etish va kelgusida rivojlangan davlatlar tajribasini o'rgangan holda "Rekruting faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish;

To'rtinchidan, yoshlarimiz 16 yoshga to'lganida fuqarolik pasportini olish bilan birga soliq idoralari tomonidan INN raqamlari, Xalq banki filiallari tomonidan INPS raqamlari olishni amalga oshirishni qonunchilikka kiritish;

Beshinchidan, ishsizlarni kasbga o'qitish hajmlarini 15,0 mingga ko'paytirish va band bo'lmagan kollej bitiruvchilarini mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblarga qayta o'qitish orqali ularning ish bilan to'liq ta'minlanishiga erishish (buning uchun 15,1 mlrd so'm mablag' talab etiladi).

Oltinchidan, norasmiy mehnat qilayotgan fuqarolarning kichik biznesga jalb etish jarayonlarini kengaytirish. Kichik biznesga berilgan imtiyozlardan keng foydalangan xolda soliq idoralari bilan birgalikda ish joylarini legallashtirish choralarini ko'rish orqali ushbu fuqarolarning kelgusida pensiya yoshiga yetganda ijtimoiy himoyasini kafolatlash.

Yettinchidan, band bo'lmagan aholiga interaktiv xizmatlar ko'rsatish ko'lamini kengaytirish, bunda vazirlik mehnat.uz saytidagi bo'sh ish o'rinlari ma'lumotlar bazasini shakllantirish jarayoni tubdan o'zgartirildi.

Qonunchilikka muvofiq bo'sh ish o'rinlari bazasiga ma'lumotlar faqat yirik korxonalar va byudjet tashkilotlardan olingan ma'lumotlar hisobiga shakllanar edi. Endilikda, Savdo-sanoat palatasi yordami, mahalliy hokimliklarning bevosita ko'magi bilan kichik biznes sub'ektlaridan ixtiyoriy ravishda ularni tadbirkorlik faoliyatiga aralashmagan holda ulardagi bo'sh ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlar bazaga kiritish yo'lga qo'yildi.

Joriy yil 1 dekabr xolatiga bazaga kiritilgan vakant ish o'rinlarining 35 % xususiy biznes sub'ektlari xissasiga to'g'ri kaladi va yil yakuniga qadar ushbu ko'rsatgichni 50 % ga yetkazishni oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

Sakkizinchidan, Dastur ijrosi keng jamoatchilik nazorati, birinchi navbatda mahalliy deputatlar tomonidan tashkil etiladi. Bu borada hurmatli deputatlarimiz va senatorlarimiz ko'magiga ham tayanamiz.

Hurmatli senatorlarimiz bilan birgalikda doimiy ishlarni tashkil etib, monitoring natijalari bo'yicha deputatlarimiz va senatorlarimizga har chorakda doimiy ravishda batafsil va tanqidiy axborot kiritib boramiz.

Fursatdan foydalanib, taqdim etilayotgan dastur bo'yicha berilgan taklif va tavsiyalar uchun hurmatli senatorlarimizga, Senat mas'ul Qo'mitalari va

bo'limlariga chuqur minnatdorchilik bildiramiz va kiritilgan 2017 yil Dasturi loyihasini qo'llab-quvvatlashingizni so'raymiz.

## **2.2. Yoshlarni mehnat bozoriga tayyorlashning asosiy yo'llari va vositalari**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 6 aprel 2007 yildagi 616-sonli qaroriga asosan, mehnat bozorining samarali ishlashi va tartibga solinishi O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining eng muhim vazifalari deb hisoblangan va unga ko'ra ushbu vazirlikning zimmasiga quyidagilar yuklatilgan:

- mintaqalar bo'yicha mehnat bozorini shakllantirishda samarali siyosatni amalga oshirish, demografik omillarni, iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish va tarkibiy qayta tashkil etishning istiqbolli yo'nalishlarini e'tiborga olgan holda bandlikning yangi shakllarini keng tatbiq etish hisobiga aholi bandligining o'sishini ta'minlash;

- demografik o'zgarishlar va kadrlarning kasbiy tayyorgarligi bilan bog'liq o'zgarib borayotgan talablarni hisobga olgan holda mehnat, ish bilan bandlik va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash sohasidagi qonun hujjatlarini ishlab chiqish va yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;

- ishga joylashishga muhtoj, ish bilan band bo'lmagan aholiga kasbiy qayta tayyorlash va ishga joylashtirish bo'yicha sifatli xizmatlar ko'rsatish;

- aholining ehtiyojmand toifalarini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlash, kamxarj oilalar, nogironlar va yolg'iz keksalarga yordam ko'rsatishda tabaqalashtirilgan tarzda va aniq yondashuvni kuchaytirish;

- mehnat, bandlik va aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi ustidan qattiq nazoratni amalga oshirish, mehnat munosabatlarini moddiy rag'batlantirish va mehnatni muhofaza qilish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

Yoshlar mehnat bozori faol siyosat olib borishning eng samarali yo'nalishlaridan biri mehnat bozorining eng muhim instituti bo'lgan ish bilan

bandlikning ixtisoslashgan umummilliy xizmatidir. Uning asosiy vazifasi mehnat bozori haqidagi axborotning tarqalishi hisobiga uning samaradorligini oshirishdan iboratdir. U, birinchidan, ishsizlarning bo'sh ish o'rinlari qidirishlariga, tadbirkorlarning xodimlar qidirishlariga sarf etiladigan vaqtni qisqartirishni ta'minlaydi, ikkinchidan, ish beruvchilarning o'z talablariga eng ko'p darajada mos keladigan xodimlar yollashiga yordam beradi, xodimlarga esa mehnat sharoitlari va ish haqi darajasi muvofiq keladigan ish joyini topishlariga imkon beradi.

Bundan tashqari, ish bilan bandlik xizmati vazifalariga quyidagilar kiradi: ish qidiruvchilarga kasblar bo'yicha maslahatlar berish va ishsizlarni yangi mutaxassisliklar bo'yicha o'qitish; nogironlar, yoshlar, harbiy xizmatdan bo'shab kelgan yoshlar va fuqarolarning ijtimoiy jihatdan himoya qilinishga muhtoj bo'lgan boshqa guruhlar uchun ish joylarini band qilib qo'yish; ish kuchuni hududlar bo'yicha qayta taqsimlash; oddiy yo'l bilan ishga kira olmaydigan fuqarolarning (ko'p bolali va yolg'iz ota-onalarning) ish bilan bandligiga qo'maklashish uchun ish o'rinlarini qo'llab-quvvatlash; ishsizlarning tadbirkorlik va mustaqil faoliyati bilan shug'ullanishlariga yordam ko'rsatish; ommaviy ishdan bo'shatishlarni to'xtatib qolish uchun kompensasiya to'lovlarini amalga oshirish.

Respublikamizda davlat ish bilan bandlik xizmati 1991 yilda tashkil etilgan edi. Ish bilan bandlik xizmati ishining asosiy tamoyillarixalqaro tajribaga mos keladi. Masalan, aholining ish bilan bandligi to'g'risidagi qonunga ko'ra davlat fuqarolariga o'zlari uchun mos keladigan ish tanlashda va ishga joylashda bepul yordam ko'rsatadi, ishsizlarga bepul ta'lim olish imkoniyati yaratib beriladi, yangi kasbga o'qiyotgan vaqtda stipendiya to'lanadi, haq to'lanadigan jamoat ishlarida qatnashish imkoni beriladi, ishsiz fuqarolar daromadlarini qo'llab-quvvatlash siyosati amalga oshiriladi. Ish bilan bandlik xizmati murojaat qilgan mehnatkashlarga va ish beruvchilarga ishga ega bo'lish imkoniyati haqida va ish kuchi bilan ta'minlash to'g'risida, biror kasb egallashni istaydigan fuqarolarga qo'yiladigan talablar haqida axborotlar beriladi; fuqarolarning



o'zlariga mos keladigan ish topishlarida, ish beruvchilarga esa zarur xodimlar tanlashda ko'maklashadi. Ish bilan xizmati ish beruvchilarga yoshlar, nogironlar, yolg'iz va ko'p bolali ota-onalar uchun ish o'rinlari saqlash va yaratish dasturlarini qo'llab-quvvatlashni kafolatlaydi. Sanoati rivojlangan mamlakatlardagi ishga joylashtirish byurolari kabi respublika ish bilan bandlik xizmati organlari ish o'rinlarini taklif qilish va ish kuchiga bo'lgan talab va taklif to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni, axborot materiallarini e'lon qilib borishni ta'minlaydilar.

Shuning uchun dunyodagi barcha mamlakatlarda ishsizlar va ishsiz qolish xavfi ostida turgan xodimlarning kasb tayyorgarligi va ularni qayta tayyorlashdan iborat turli-tuman dasturlarni ishlab chiqish tajriba qilib ko'rilayotir. Bunda mazkur dasturlar birinchi navbatda oldingi kasb malakasi iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarga, ishchi o'rinlarining yangi kasbiy tuzilishiga javob bermaydigan kishilarga, shuningdek, aholining zaif himoyalangan qismiga (hozircha zarur kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lmagan yoshlarga, mehnat bozoriga qaytishga qaror qilgan ayollarga; kasbga yo'naltirishga ehtiyoj sezadigan nogironlar va boshqalarga) qaratilgan. Ko'pincha ta'lim olish uchun nomzodlarni davlat ish bilan bandlik xizmati aniqlaydi.

Kasb tayyorgarligi va qayta tayyorlov dasturlari davlat, tadbirkorlar va kasaba uyushmalarining ishtirokida ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Bu dasturlarning bevosita tashkilotchisi ko'pincha davlat ish bilan bandlik xizmati hisoblanadi, u markazlar va o'quv kurslarining maxsus tashkil etilgan shahobchalarda, shuningdek, o'quv yurtlari yoki korxonalar bilan tuzilgan shartnomalar asosida tashkil etadi; ta'lim oluvchilarga stipendiyalar to'lanadi.

Ish bilan bandlik xizmati davlat manfaatlarini ko'zlab ish olib boradi, ishsizlarning ta'lim olishi va qayta o'qishini ularga mablag'lar ajratish shaklida nafaqalar to'lash orqali rag'batlantiradi.

Aholining ish bilan bandligi to'g'risidagi qonunda ishsiz fuqarolar ham ish bilan bandlik xizmati yo'llanmasi bilan bepul kasb tanlash, kasb tayyorgarligi, qayta tayyorlash va malaka oshirish huquqiga egadirlar, deb

ta'kidlangan. Mazkur huquqlar qonunning boshqa moddalari va bandlarida ham kafolatlangan.

Mehnat bozoridagi ana shu yo'nalishini amalga oshirishdagi asosiy murakkablik iqtisodiyotning bo'lajak kasb-malaka tuzilishi to'g'risida, o'rta va uzoq muddatli istiqbolda kasb sohasidagi mehnatga bo'lgan ehtiyoj qanday bo'lishi haqidagi axborotning yetishmasligidadir. Yana bir muammo ishdan mahrum bo'lgan shaxslarning kasbiy jihatdan qayta tayyorlanishga kam talab bildirishidir, chunki ular oldingi kasblari bo'yicha ishga joylashishga umid qiladilar. Mehnat bozoridagi faol siyosatning mazkur yo'nalishini rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi omil ish bilan bandlik xizmati faoliyatini moliyaviy jihatdan ta'minlashning cheklanganligi hamdir.

Mustaqil ish bilan bandlik va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash tizimi. Hozirgi vaqtda mehnat bozoridagi faol siyosatni amalga oshirish sohasidagi faoliyat doirasida mustaqil ish bilan bandlikni rivojlantirish, tadbirkorlik malakalarini o'rgatish va kichik biznesni tashkil etishga ko'maklashish dasturlari muhim ahamiyat kasb etadi. Mehnat bozoridagi siyosatning bu yo'nalishi eng muhim ijtimoiy vazifani – yangicha mehnat dunyoqarashini shakllantirishdir.

Ishsizlar agar o'zlarining mustaqil ishlarini tashkil etishni hohlasalar, ish bilan bandlik xizmatiga zarur asoslash bilan (bizne-reja bilan) loyihalar tanlovida ishtirok etish haqida ariza beradilar, bu yerda uning rejasini mutaxassislar ko'rib chiqib, o'z xulosalarini beradilar. Agar iltimos qondiriladigan bo'lsa, u holda yangi tadbirkor uchun boshlang'ich kapital sifatida unga muayyan muddatga beriladigan ishsizlik nafaqasining butun summasi xizmat qiladi va bir yo'la to'lanadi.

Ishsizlikni kamaytirishning chora-tadbirlari sifatida quyidagilarni qayd etib o'tish mumkin:

- korxonada yangi ishchi o'rinlari tashkil etish yo'li bilan aholini ishga jalb qilish;
- jamoat xizmatini tashkil etish;

- xususiy tadbirkorlikni hamda aholining o'z-o'zini ish bilan ta'minlashni rag'batlantirish, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish;
- kamyob mutaxassisliklar va kasblar bo'yicha qayta tayyorlash va malaka oshirish;
- ish bilan bandlikning turli shakllarini qo'llash;
- aholini ish bilan ta'minlash imkoniyatlari xususida keng miqyosda xabardor etib turish.

Ish bilan bandlik xizmatining yana bir vazifasi mustaqil mehnat faoliyati bilan shug'ullanishni istaydiganlarni o'qitishdir. Bu kishilar ishga doir asosiy ko'nikmalarni (narx belgilash asoslari, muhosiblik hisobi, rejalashtirish va hokazolar) o'qish jarayonida egallab chiqadilar. Ish bilan bandlik xizmatining vazifasi tadbirkorga mustaqil ish bilan bandlik nimalarni bildirishini (masalan, ijtimoiy ne'matlarning birmuncha qisqarishi, ish vaqtining davomiyligi birmuncha ortishi, yuqori darajadagi tavakkalchilik, xonavayron bo'lish ehtimoli borligi, qonunlarning hali to'la mukammal emasligi va hokazolarni) tushuntirishdir.

Yangi tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash yana quyidagilarni o'z ichiga oladi: maslahat xizmatlarini ko'rsatish, imtiyozli qarz berish, ishlab chiqarish binolari, xom ashyo bilan ta'minlash, xom ashyo yetkazib beruvchilar bilan aloqa o'rnatish va tayyor mahsulotni sotish.

Hozirgi vaqtda mustaqil shug'ullanish va tadbirkorlik tashabbusi asosida kichik ishlab chiqarish korxonalarining shakllanishi keng istiqbolga egadir. Hozir ish bilan bandlarning qariyb 15% i mulkchilikning barcha shakllaridagi kichik korxonalarda mehnat qilmoqda. Shunday hodisalar, chunonchi, xususiylashtirish, raqobatning kuchayishi munosabati bilan korxonalar hajmining qisqarishi, ommaviy ishlab chiqarishdan moslashuvchan ixtisoslashuvga o'tilishi, shuningdek, tarkibiy qayta qurish jarayoni, mutaxassislarning fikricha, o'tish iqtisodiyotiga ega bo'lgan boshqa mamlakatlardagikabi yirik firmalardagi yangi ish o'rinlari kichik korxonalariga nisbatan kamroq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi qonunning 15, 23 moddalariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish Respublika jamg'armasini tashkil qilish haqida"gi 1992 yil 31 dekabrda 606-son qaroriga, "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 606-son qaroriga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi 1993 yil 8-iyundagi 277-qaroriga, "Aholini ish bilan ta'minlash dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish Tartibini tasdiqlash to'g'risida"gi 1993 yil 24-iyun 310-qaroriga ko'ra mehnat bo'yicha muassasalariga aholini ish bilan ta'minlashga ko'maklashish jamg'armasi hisobidan qo'shimcha ish joylarini bunyod qilish huquqi berilgan.

Ishchi kuchlaridan foydalanish va aholi bandligi bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirish maqsadida aholini ish bilan ta'minlashga ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari vaqtincha moliyaviy qiyinchiliklarni boshidan kechirayotgan korxonalariga, turli mulkchilik ko'rinishdagi yangi korxonalarni yaratishga kreditlar berish yo'li bilan sarflanadi.

Bunday mablag'lar to'lov, ta'minlanganlik va qaytarib berish sharti bilan qisqa muddatga (uzog'i bilan 1 yilgacha) va ustav jamg'armasi badali sifatida tag'dim qilinadi.

Aholini ish bilan ta'minlashga ko'maklashish jamg'armasidan beriladigan kreditlarning hisob stavkasi (prosent, foizi) O'zbekiston Respublikasi Mehnat Vazirligi tomonidan pul-kredit munosabatlarini tartibga soluvchi qonuniy hujjatlar asosida belgilanadi.

Qo'shimcha ish joylari yaratish uchun aholini ish bilan ta'minlashga ko'maklashish jamg'armasidan mablag'lar ajratish O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar xokimlari tasdiqlagan "Bandlik" dasturlariga ko'ra amalga oshiriladi<sup>16</sup>.

Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish jamg'armasidan quyidagi tadbirlarni amalga oshirishda foydalaniladi:

---

<sup>16</sup>AbdurahmonovQ.X., MamarasulovF.U. Aholiishbilanbandligiinfrastrukturasi. T.: 2000. 66-67b.

Aholining raqobatga chidamsiz qatlamlari (umumta'lim maktablarini bitiruvchilar, ko'p bolali va yolg'iz ayollar, pensiya arafasidagilar, xarbiy xizmatdan qaytganlar) va ishsizlar uchun, shu toifadagi shaxslar 50%dan ko'pni tashkil qiladigan joylarda ish joylari bunyod qilish maqsadida moliyaviy mablag'larni ajratish.

Hokimiyatlarning maxsus komissiyalari xulosasiga ko'ra korxonalariga xodimlarning yoppasiga ishdan bo'shatilishning olidini olish maqsadida va mavjud ish joylarini saqlab qolish uchun moliyaviy yordam berish.

Kamida 80% gacha qurilish ishlari bajarilgan, lekin tugallanmagan va shu darajaga kelganda qurilish to'xtatilgan obyektlarda, shuningdek foydalanilmayotgan va bo'shatilgan ishlab chiqarish maydonlarida ish joylarini bunyod etishda qatnashish.

Korxonalar, jamoa va davlat xo'jaliklari bilan birgalikda qishloq mahsulotlarini va halq iste'mol mollarini ishlab chiqarish bo'yicha yangi ish joylarini yaratish.

Istisno hollarda, alohida tog'li, dasht va sanoati rivojlanmagan hududlarda aholini ish bilan ta'minlash uchun bandlikka ko'maklashuvchi markazlarqoshida ishga tushirish muddati 6 oydan oshmagan kichik korxonalar ochish mumkin.

Ustivor rivojlanish hududlari aholisini qabul qilingan dasturlarga mos ravishda bandligini ta'minlash uchun tadbirlar majmuasini ishlab chiqish.

Ish bilan bandlik xizmati mehnat bozorida amalga oshiradigan faol siyosatning navbatdagi yo'nalishi ishsizlarga vaqtincha va jamoat ishlarining dasturlarini rivojlantirish orqali mehnat bozoriga qaytishda yordam ko'rsatishdir. Bunday dasturlar birinchi marta AQShda 30-yillarda paydo bo'lgan edi. O'sha yillarda jamoat ishlari umummilliy xususiyatga ega edi va o'ziga yuqori malakani talab qilmaydigan ishlarni qamrab olardi. Xalqaro tajribaning ko'rsatishicha, hozirgi vaqtda mazkur dasturlar ba'zan butun mamlakatni, ko'pincha esa aholining ayrim toifalarini, hududlarni yoki davrlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Mazkur dasturlar ishsizlarga maxsus kasb tayyorgarligisiz hamma uchun qulay faoliyat turlarini taqdim etadi. Bu dasturlarni amalga oshirish tajribasini umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, ular quyidagi ish turlarini bajarishga qaratilgan: yo'l qurilishi va uni ta'mirlash, ko'priklar barpo etish va ta'mirlash (AQSh va Yaponiyada): yerlarni o'zlashtirish – daraxtlar o'tqazish, irrigasiya, kanallar, portlar, aerodromlar qurilishi va ularga xizmat ko'rsatish; ekologik tadbirlar (Avstraliya tajribasi). Munisipial ma'murlar haq to'lanadigan ijtimoiy jamoatlar ishlari – bular qariyalarga, nogironlarga qarash xizmatlari va hokazolar (Kanada, Avstraliya va boshqa mamlakatlarning tajribasi) ham mavjuddir.

Ko'pincha jamoat ishlari to'liq bo'lmagan ish kuni mobaynida davom qiladi, bundan maqsad vaqtning bir qismini kasb tayyorgarligiga yoki doimiy ish qidirishga bag'ishlashdir. Mazkur dasturlarning qatnashchilari odatda eng kam ish haqi oladilar.

Vaqtincha ishlarning tashkil etilishi bir qator prinsiplarga asoslangan. Vaqtincha ishlar bandlik xizmati tomonidan bevosita yoki boshqa tashkilotlar bilan shartnomalar tuzish orqali amalga oshiriladi:

1. Bu ishlar aynan vaqtincha bo'lishi va ular odatdagi ish o'rinlari bilan raqobatga kirishmasligi kerak. Buning ma'nosi shuki, bunday ishlar jamoat ishlarining maxsus dasturlarisiz amalga oshirilmasligi lozim;

2. Bunday ishlarning qatnashchilari faqat cheklangan vaqt mobaynida shug'ullanishlari mumkin, masalan, 1 yilgacha, keyin normal ishga joylashish imkoniyati paydo bo'lishi bilan darhol bu dasturlarni yangilashlari mumkin.

Vaqtincha yoki jamoat ishlari dasturlarining samaradorligi, birinchidan, qo'shimcha ish o'rinlari yaratishda namoyon bo'ladi (mutaxassislarning bergan bahosiga qaraganda, jamoat ishlari sohasida har 100 ta ish o'rni boshqa sektorlarda 40 ta doimiy ish o'rinlari paydo bo'lishiga olib keladi). Ikkinchidan, ishsizlarni ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlashni ta'minlashda namoyon bo'ladi (hammaga ma'lumki, ish bilan bandlarning ruhiy holati ishsizlarning holatidan ancha yaxshiroqdir).

**Bag'dod tuman Bandlikka kumaklashish markazi tomonidan 2017 yil  
4 oy davomida axoli va yoshlar bandligini ta'minlash borasida amalga  
oshirilgan ishlar tug'risida**

Bag'dod tumanida bugungi kunda Mehnat Resurslari 112727 nafarni tashkil etib, shundan Iqtisodiy faol axoli 85714 nafarni, Ish bilan bandlar jami 81124 nafarni, Rasmiy sektorda 47456 nafarni, Norasmiy sektorda 31091 nafarni, ish bilan ta'minlanishga muxtoj axoli 4590 nafar bo'lib, ishsizlik darajasi tumanda 5,4% ni tashkil kiladi.

Tumandagi axolini bandligini ta'minlash soxasidagi davlat siyosatini asosiy yo'nalishlarini amalga oshirish, band bo'lmagan axolini ish bilan ta'minlash va ishsiz fukarolarni ijtimoiy ximoyaga olish maksadida Bandlikka kumaklashish va axolini ijtimoiy muxofaza kilish markazi 2017 yilning 4 oyi davomida band bulmagan axolini ish bilan ta'minlash va ishsiz fukarolarni ijtimoiy ximoyaga olish maksadida kuyidagi ishlarni amalga oshirildi.

***Jumladan:***

**2-jadval**

	2017 yil yillik Dastur	2017 yil 4 oylik Dastur	2017 yil 4 oylik Amal	%
Ruyxatga olindi	1375	430	538	125
Shundan ayollar	719	220	224	102
Ishga joylashtirildi	1310	430	480	112
Shundan ayollar	694	190	193	102
Ishsizlik nafaqasi tayinlandi	10	20	25	120
Shundan ayollar	5	10	19	120
Qayta o'qishga yuborildi	20	10	10	100
Shundan ayollar	10	0	0	100
Xak to'lanadigan jamoat ishiga yuborildi	35	10	15	150
Shundan ayollar	10	5	7	130
Yangi ish o'rinlari yaratildi	3905	1130	1169	103,5
Shundan ayollar	1224	394	405	102,7

Bag'dod tumani bandlikka ko'maklashish markazidagi xisobot materiallari asosida tuzildi. Yuqoridagi ishga joylashtirish bilan bog'liq dastur va uning ijrosidan ko'rinadiki Bag'dod tumanida aholining bandligini ta'minlash va ijtimoiy ximoya qilish bo'yicha aniq chora tadbirlar ishlab chiqilgan. Buni biz 2017 yil uchun yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha ishlab chiqilgan rejalarini o'tgan 4 oy davomida 103,5% ga bajarilganligida ko'rishimiz mumkin. SHuningdek tumandagi ish qidirayotgan fuqarolarni xaq to'lanadigan jamoa ishlariga yuborish ustuvor tendentsiyaga aylangan ya'ni joriy yilning 4 oyi davomida bu boradagi vazifalar 150% ga bajarilgan. Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki tumanda ish bilan band bo'lmagan ayollar masalasiga alohida e'tibor qaratilgan buni rejadagi 5 nafar o'rniga 19 ta xotin-qizlarni ish bilan ta'minlanganligi ham ko'rsatib turibti.

### **Bo'sh ish o'rinlari "Mehnat yarmarkasi" bo'yicha**

Tuman xokimining tashabbusi bilan, tuman Prokuraturasi, tuman Xotin- kizlar kengashi, tuman Bandlikka kumaklapshsh markazi xamkorligida 2017- yilning 4 oyi davomida 2 marta bo'sh ish o'rinlari mehnat yarmarkasi o'tkazildi. Yarmarkada 45 ta korxonada 178 ta bo'sh ish o'rinlari bilan katnashdi. Mehnat yarmarkasida 110 nafar fuqarolar qatnashdi. Shundan 45 nafar kasb-hunar kolleji bitiruvchilari va ayollar 51 nafarni tashkil qiladi.

**3-jadval**

Ko'rsatkichlar		Shundan			
Ro'yxatga olindi	12	Kasb-hunar kolleji bitiruvchilari	2	Ayollar	3
Ishga joylashtirildi	12		2		3
Maslaxatlar berildi	98		43		48

Tuman xokimining tashabbusi bilani o'tkazilgan bo'sh ish o'rinlari "Mehnat yarmarkasi"da 110 nafar fuqarolar qatnashdi shundan 45 nafari kasb-hunar kolleji bitiruvchilari va 51 nafarini ayollar tashkil qiladi. Ulardan 12 nafari ishga joylashtirildi 2 nafari kolleji bitiruvchilari 3 nafari ayollar.



## Квота иш уринлари буйича

Туман хокимининг 2016 йил 10-октябрдаги 767-сонли қарорига ва Ўзбекистон Республикасининг “Аҳолини иш билан таъминлаш тўғрисида”ги қонунининг 7-моддасига ва Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2008 йил 20 августдаги № 186- сонли “Ижтимоий муҳофазага мухтож, иш топишга кийналадиган ва меҳнат бозорида тенг шароитларда рақобатлашишга қодир бўлмаган фуқароларни ишга жойлаштириш учун иш ўринлари банд қилиб қўйиш тартиби тўғрисида Низомни тасдиқлаш тўғрисида” ги қарорига асосан 2017 йил учун 135 та корхонага 7 % яъни 680 та шундан 3% яъни 292 та режалаштирилган бўлиб, 2017 йил 4 ой давомида квота асосида Бандликка кумаклашиш маркази йўлланмасига асосан 85 нафар фуқаролар ишга жойлаштирилди.

**Жумладан:**

**4-jadval**

Рўйхат Бўйича ишчилар сони	Режа		Амал Бандлиги		2017 йилда ишга жойлаш- ганлар Хаммаси	Марказ йўлланмаси билан ишга жойлаштирилди							
	Жаммаси	Шундан ногирон	Жаммаси	Шундан ногирон		Битирувчилар	Кўп болали якка ёлғиз отоналар	Ногиронлар	Нафақа олдиёш	ККС К	жазо	Сафар-барликка чақирилганлар	Одам савдоси жабирдий- далари
9200	680	292	89	56	89	26	4	56	0	1	2	0	0

Bag'dod tumani bandlikka ko'maklashish markazi yo'llanmasi bilan 2017 yil 4 oyi davomida kvota asosida 85 nafar fuqarolar ishga joylashtirildi shundan 26 nafari kasb-xunar kolleji bitiruvchilari, 4 nafari ko'p bolali yakka yolg'iz otanalar, 56 nafari imkoniyati cheklangan shaxslar, 1 kishi keksa yoshlilar.

### Jazoni o'tash joylaridan kelgan fukarolarni ishga joylash tug'risida

Bag'dod tumani buyicha 2017 yil 4 oy davomida jami 14 nafar fuqarolar jazoni o'tash joylaridan kelgan 7 nafarini bandligi ta'minlangan.

### 5-jadval

Muddat bilan	Jazoni o'tash joylaridan kelganlar soni	SHundan					
		Bandlikka ko'maklashish markazi tomonidan ishga joylashtirilganlar	Mustaqil ishga joylashgan	Yoshga doir pensiya tayinlanganlar	Doimiy yashash joyidan ketganlar	Ishga joylashishni xoxlamaganlar	Ishga joylashmaganlar
	14	6	1	0	1	2	4

### Qurolli kuchlar safidan bo'shab kelgan fuqarolarni ishga joylash to'g'risida

Bag'dod tumani bo'yicha 2017 yil 4 oy davomida 58 nafar fuqaro Qurolli kuchlar safidan zaxiraga bushab kelgan.

Shundan:

### 6-jadval

Qurollik kuchlar safidan bo'shab kelganlar soni	Bandlikka kumaklashish markazi tomonidan ishga joylashtirilganlar soni	Mustaqil ishga joylashganlar soni	Shundan		Turli oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlariga o'qishga kirganlar	SHartnoma bo'yicha xarbiy xizmatda qolganlar	Fuqaro yashash joyidan ko'chib ketganlar soni
			Yakka tartibda tadbirkorlik bilan shugullanayotganlar	Xukukni Muxofaza qilish organlariga ishga kirishi uchun xujjat topshirganlar			
58	13	2	0	19	20	5	0

Qurolli kuchlar safidan bo'shab kelgan fuqarolarni ishshga joylashda bandlikka ko'maklashish markazining ahamiyati kattadir. Bag'dod tumani bo'yicha 2017 yil 4 oy davomida 58 nafar fuqaro qurolli kuchlar safidan zaxiraga bo'shab kelgan ulardan 13 nafarini bandlikka ko'maklashish markazi ishga joylashtirgan, 2 nafari o'zi mustaqil ishga joylashgan, shundan 19 nafari huquni muxofaza qilish organlariga ishga kirish uchun xujjat topshirgan. 20 nafari turli oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlariga o'qishga kirganlar, 5 nafari shartnoma bo'yicha harbiy xizmatda qolgan.

## **Ish o'rinlar tashkil etish va axoli bandligini ta'minlash dasturi bajarilishi**

Tumanda ish o'rinlarini tashkil etish va axoli bandligini ta'minlash dastur bo'yicha **2017** yilda **997** ta loyixalarda 3905 ta ish o'rinlari tashkil etilishi belgilangan.

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida 104 ta loyixalarda 1169 ta ish o'rinlari tashkil etilgan. Bu ko'rsatgich 4 oylik rejaga nisbatan 103,5%ni tashkil etadi. (yillik dasturga nisbatan 30% ) ni tashkil etadi. SHundan ayollar uchun 394 ta ish o'rinlari tashkil etilgan.


Dastur bajarilishini yo'nalishlar kesimida taxlil qilinganda:

- Sanoat yo'nalishida - 1 ta loyixada 15 ta ish o'rinlari
- Xizmat ko'rsatish yo'nalishida - 17 ta loyixada 92 ta ish o'rinlari
- Qishlok, xujaligida 6 loyixada 58 ta ish o'rinlari
- Qurilish va infratuzilma ob'ektlarini amalga oshirishda - 4 ta loyixada 60 ta ish o'rinlari
- Yakka tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirish - 427 ta ish o'rinlari
- Optimizatsiya, bankrotlik va korxonalarni tugatish hisobiga xamda yakka tartibdagi tadbirkorlikda ish o'rinlarini chiqib ketishi xisobiga - 194 ta ish o'rinlari
- Qishlok xujaligida, qishloq xujaligi maxsulotlarini qayta ishlash va kurilishdagi mavsumiy va vaqtincha ishlarda bandlar - 53 ta loyixada 178 ta ish o'rinlari
- Axolini shaxsiy yordamchi va dexkon xujaligida o'z-o'zini band qilish va oilaviy tadbirkorlikda - 508 ta ish o'rinlari tashkil etilgan.

Bugungi kunda O'zbekistonda ishchi kuchini sotishga to'g'anoq bo'ladigan ma'muriy, huquqiy va iqtisodiy cheklovlar olib tashlangan. Ya'ni propiska tizimi bekor qilingan, davlat mulki monopoliyasi yo'q, aholini ish bilan ta'minlashning davlat mexanizmi taraqqiy etmoqda.

Hozirgi paytda bozor munosabatlari talabiga mos ravishda mehnat sifati o'sayotganligi an'anasi ko'zga chalinmoqda. Tashabbuskor, layoqatli mehnatkashlar guruhlari, o'z navbatida, mehnat sharoitiga o'z talablarini qo'ymoqdalar. Albatta, bu jarayon ko'ngildagidek kechayapti, deb bo'lmaydi. Bunga avvalo bizning bugungi iqtisodimizning o'tish davrida ekanligi o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Ikkinchidan esa iqtisodiy islohotlar o'z yo'lida ma'lum qiyinchiliklarga ham uchramoqda. Shu boisdan ham aholini ish bilan band qilish muammosini ko'p yillardan buyon bozor iqtisodi sharoitida yashayotgan ayrim davlatlar tajribasini ko'chirib olgan holda amaliyotga tatbiq etib emas, o'zimizdagi mavjud voqeyelikni chuqur tahlil qilgan va yetarli saboqlar chiqargan holda yechish joiz.

Umuman olganda, yoshlarni ish bilan to'la ta'min qilish yagona va asosiy vazifa bo'lib qolmasligi kerak. Masalaning mohiyati shundan iboratki, aholini ish bilan ta'minlash va ish bilan band bo'lmagan aholining ijtimoiy muhofazasini oshirish ishlab chiqarish samaradorligi va sifati oshishiga, insonning to'laqonli hayot kechirishiga xizmat qilmog'i lozim.



### 2.1-rasm. Mehnat bozorida aholini ish bilan bandligi va uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'siri.

Aholi bandligini ta'minlash jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi va u iqtisodiyotda alohida ahamiyatga ega. O'zbekistonda aholini ish bilan ta'minlashni yanadayaxshilash va uning

farovonligini oshirishning eng muhim yo'nalishi sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish va kasanachilik sohalarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishni rag'batlantirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda aholini ish bilan ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar quyidagilardan iborat:

1. Aholining ish bilan bandligi tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish hamda ishsiz aholini yangi, mehnat bozorida raqobatdosh kasb-hunarlariga o'rgatish.

2. Ishlab chiqarishni modernizasiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, ayniqsa tarkibiy o'zgartirish va diversifikasiya masalalariga e'tiborni kuchaytirish. Bu yangi ish o'rinlari yaratish bilan bir qatorda ichki va tashqi iste'molga mo'ljallangan yangi mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni ham ko'zda tutadi.

3. Ish bilan bandlikka ko'maklashuvchi markazlar faoliyatini takomillashtirish, bunda eng avvalo ushbu markazlar tuzilmasini maqbullashtirish, global inqiroz sharoitida ustuvor chora-tadbirlarni belgilab olish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalaridan kelib chiqqan holda, aholini ish bilan ta'minlash uchun ajratilayotgan moliyaviy mablag'larni oqilona taqsimlash chora-tadbirlarini amalga oshirishni talab etadi.<sup>17</sup>

---

<sup>17</sup>Зокирова Н., Абдурахмонов О. Инқироз: оқибатлар, бартараф этиш, меҳнат муаммолари ва янги марраларга чиқиш. – Т.: Fan va texnologiya, 2009. – 136-138-бетлар

## XULOSA

### **O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosa va tavsiyalar ishlab chiqildi:**

- Mehnat bozori mehnat resurslarini shakllantirish, taqsimlash qayta taqsimlash va ulardan foydalanishni muvofiqlashtiruvchi iqtisodiy munosabatlar tizimi bo'lib, ishlab chiqarish, tijorat va boshqa faoliyat turlarini samarali amalga oshirishni ko'zlaydigan ish kuchi sotuvchilari va xaridorlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar mexanizmi sifatida ish kuchiga talab va taklif o'rtasidagi nisbatlarni huquqiy normalar asosida bevosita tartibga soluvchi bozor iqtisodiyotining murakkab ijtimoiy – iqtisodiy tizimidir. SHuningdek, mehnat bozori bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosid qurilgan ijtimoiy mehnat munosabatlari tizimidir.

- Mehnat bozorini turli mexanizmlar orqali tartibga solish strategiya va taktikasini ishlab chiqish barcha jarayonlarining jamiyat va iqtisodiyotning olg'a tomon rivojlanishi talablariga, jamiyatdagi ijtimoiy – siyosiy barqarorlikni ta'minlaydigan chora-tadbirlarning ustuvorligini ta'minlashga hamda ish bilan bandlik samaradorligini oshishiga xizmat qilishi zarur.

Mehnat bozorini davlat tomonidan tartibga solish iqtisodiy rivojlanish talablarini amalga shart-sharoit yaratishi zarur. Bu esa mehnat resurslarining yuqori darajada ish bilan bandligi keragidan ortiqcha xodimlarni saqlab turish orqali emas, balki yangi ish o'rinlarini yaratish, aholining ish joylariga bo'lgan ehtiyojlarini kamaytirish, mehnat bozorida faol siyosat bo'yicha maqsadli dasturlarni ishlab chiqish kerak.

- Qayta qurilayotgan ta'lim tizimi iqtisodiyot tarmoqlari talablariga hozirgi kun tuzilmaviy tarkibidan kelib chiqib emas, balki yanada ilgarilashni ta'minlash hisobiga, ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishining bundan keyingi tezashishiga ham mos bo'ladi.

O'zbekiston sharoitida kadrlarni tayyorlash va ular malakasini oshirish ishlarining samarali bo'lishi uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

– mutaxassislar tayyorlash va ular malakasini oshirish ishlarini olib borishga qodir bo‘lgan o‘quv yurtlari ro‘yxatini qayta ko‘rib chiqish va ularga moliyaviy va moddiy imtiyozlar berish;

– o‘quv yurtlari faoliyatini boshqarishda iqtisodiy uslublardan kengroq foydalanish;

– mutaxassislarni qayta tayyorlashning eng maqbul yo‘llarini tanlash va miqdor jihatidan ularni mehnat bozoridagi talab ehtiyojiga qarab o‘zgarib turishini ta’minlash;

– mehnat bozorida ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam hisoblangan yoshlarning malakasini oshirish, qayta tayyorgarlikdan o‘tishi orqali ularning raqobatbardoshligini ta’minlash;

– yoshlarni kasbga yo‘naltirishni psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ilmiy asoslangan dasturlarni ishlab chiqish.

– kasbiy tarkibning yillik tahlili, bitiruvchi ishsizlar soni va ularni ishga joylashtirish monitoringini tizimli ravishda o‘tkazi borish.

- Bizningcha, yoshlar ishsizligini kamaytirishning hududiy dasturi metodikasini ishlab chiqish va tadbiiq etish ularni ish bilan bandligini oshirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Mazkur dastur ish bilan bandlikning davlat siyosati, inflyasiya va ishsizlik, ish bilan bandlik va investitsiyalar, ish joylari va mehnat resurslari o‘rtasidagi makroiqtisodiy nisbatlar bilan uzviy bog‘liq holda ishlab chiqilishi zarur.

Yuqorida zikr etilgan xulosa va tavsiyalardan amalda foydalanish O‘zbekiston sharoitida respublikamiz mehnat bozorida yoshlarning samaral bilan bandligini ta’minlashda muhim omil va shart – sharoitlar bo‘lib hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### **I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident Farmonlari va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari**

#### **1. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari**

1.1. O'zbekiston Respublikasining "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahrir). –T.: Adolat, 1998

1.2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. – T.: "Iqtisodiyot huquq dunyosi", 2010.

1.3. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2010.

#### **2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va qarorlari**

2.1. 215-modda.

2.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.01.2009 yildagi 1045-sonli "Inqirozga qarshi dastur va boshqa qo'shimcha choralar to'g'risida"gi Qarori. "Xalq so'zi" gazetasi, 2009 yil 23 yanvar.

2.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2009 yil 20 yanvar, PQ-1041-son.

2.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2011 yil 4 apreldagi Farmoni. // Xalq so'zi, 2011 yil 5 aprel.

2.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori "2012-2016 yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012 y., 20-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 24 avgustdagi "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4354-sonli Farmoni.



2.6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 4 maydagi "Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4296-sonli Farmoni. // Xalq so'zi, 2011 yil 5 may.

2.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish va davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini yanadatakomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2011 yil 12 maydagi Qarori. // Xalq so'zi, 2011 yil 13 may.

2.8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" davlat dasturi to'g'risida"gi 2011 yil 7 fevraldagi Qarori.

2.9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash hajmlarini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2011 yil 11 martdagi PQ-1501-sonli Qarori.

2.10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 29 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2011 yilga mo'ljallangan investision dasturi to'g'risida"gi 1455-sonli Qarori.

2.11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 27 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2012 yilga mo'ljallangan investision dasturi to'g'risida"gi 1668-sonli Qarori.

2.12.. Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o'rtasida kooperasiyani kengaytirishni rag'batlantirish choratadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 05.01.2006 yil.№PF3706.

### **3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari**

3.1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 9 apreldagi 104-sonli Qarori. "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2009 yil 15son.

3.2. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Nizomi.. "Xalq so'zi" gazetasi, 11.01.2010 yil.

## **II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari**

### **1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1.1. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch.– T.: "Ma'naviyat", 2008.

1.2. I.A.Karimov. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T.: O'zbekiston, 2009.

1.3. I.A.Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: "O'zbekiston", 2009

1.4.. I.A.Karimov. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2010.

1.5. I.A.Karimov. Mamlakatimizda demoraktik isloxotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi- T.: O'zbekiston, 2010.

1.6. I.A.Karimov. Demokratik isloxotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shaklantirish - mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir.–T.: 19.T. O'zbekiston, 2011.

1.7. I.A.Karimov. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbeiston, 2011.

### **2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ma'ruzalari**

2.1. Karimov I.A. 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tariladigan yil bo'ldi O'zbekiston Respublikasi I.A.Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonning ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasining majlisidagi ma'ruzasi// Xalq so'zi, 2012 yil 20 yanvar, № 14 (5434).

2.2. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. – Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma‘ruzasi // Xalq so‘zi, 2010 yil 28 yanvar, №19 (4934).

2.3. Karimov I.A.Bizning yo‘limiz — demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo‘lidir. O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 19 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda qilgan ma‘ruzasi. – “Xalq so‘zi” gazetasi.

2.4. Karimov I.A.«Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti» mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutq // Xalq so‘zi, 2012 yil 18 fevral.

2.5. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning yo‘nalishlarga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. // Xalq so‘zi. 2012 yil 20 yanvar soni.

### **III. Asosiy adabiyotlar**

#### **1. O‘zbekiston Respublikasida chop etilgan**

1.1. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. Darslik. T.: “Mehnat” - 2009.

1.2. Abdurahmonov Q.X., Xolmo‘minov Sh.R., Zokirova N.Q. Personalni boshqarish. Darslik. – T.: “O‘qituvchi” NMIU, 2008.

1.3. Abdurahmonov Q.X., Shoyusupova N.T., Bakiyeva I.A. “Mehnat iqtisodiyoti” – T.: TDIU, 2011.

1.4. Hayitov A.B., Adilova G.G., Arabov N.U. “Xorijda mehnatga haq to‘lashni tashkil etish” - T.: TDIU, 2011.

1.5. Рынок труда: Учебное пособие. /Под общ.ред. Абдурахмонова К.Х., Одегова Ю.Г. – Т.: ТФРЕА, 2009.

1.6. Bakiyeva I.A. “Inson resurslari iqtisodiyoti” fani (O’quv qo’llanma) – Т.: TDIU, 2011.

1.7. Abduramanov X.X. “Mehnat resurslari safarbarligi. O’quv qo’llanma. – Т.: TDIU, 2011.

1.8. Xolmuminov Sh.R., Bakiyeva I.A. Mehnat ko’rsatkichlari tahlili (o’quv qo’llanma) – Т.: TDIU, 2009.

## **2. Rossiyada chop etilgan**

2.1. Экономика и социология труда. Учебник. / Под. ред. А.Я.Кибанова. – М.: ИНФРА-М, 2010.

2.2. Волгин Н.А. Экономика труда: (социально-трудовые отношения) / Под ред. Н.Л. Волгина, Ю.Д. Одегова. -М.: «ЭКЗАМЕН», 2009

2.3. Кязимов К.Г. Рынок труда и занятость населения: Учеб. пособ.– М.: «Перспектива», 2005.

2.4. Мумладзе Р.Г. Экономика и социология труда: учебник / под общ ред Р.Г. Мумладзе. – 2-е изд., стер. - М.: КНОРУС, 2007.

2.5. Рофе А.И., Збышко Б.Г., Ишин В.В. Рынок труда, занятость населения, экономика ресурсов для труда: Учеб. пос. /Под ред. А. И. Рофе. - М: Изд-во «МИК», 1997.

2.6. Одегов Ю.Г. и др. Экономика труда: Учебник. В 2 т. Т. 1. – М.: «Алфа-Пресс», 2007.

2.7. Одегов Ю.Г. и др. Экономика труда: Учебник. В 2 т. Т. 2. – М.: «Алфа-Пресс», 2007.

2.8. Рынок труда: учебник / под ред. проф. Б.С. Буланова. Рынок труда: учебник / под ред. Б.С. Буланова и Н.А. Волгина. — 3-е изд., перераб. и доп. — М: «Экзамен», 2007

2.9. Экономика и социология труда: учебник./Под. Ред. Проф. А.Я.Кибанова. –М.: ИНФРА-М, 2007

- 2.10. Адамчук В.В. Экономика и социология труда / В.В. Адамчук, О.В.Ромашов, М.Е.Сорокина- М: ЮНИТИ, 2001.
- 2.11. Кейнс Дж. М.Общая теория занятости, процента и денег. Избр произведения. –М.:Экономика, 1993.
- 2.12. Самуэлсон П. Экономика .– М.: НПО Алгон, 1992.
- 2.13. Эренберг. Р.Д., Смит Р.С. Современная экономика труда. Теория и государственная политика: Пер. с англ. - М: Изд-во МГУ, 1996.
- 2.14. Макконнелл К., Брю С.Економикс: Принципы, проблемы и политика. Т. 2. – М.: Прогресс, 1992.
- 2.15. Маршалл А. Принципы политической экономии. – М.: Прогресс, 1983.
- 2.16. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. - М.: Наука, 1993.

#### **IV. Qo'shimcha adabiyotlar**

##### **1. Darslik va o'quv qo'llanmalar**

- 1.1. Shodmonov Sh.Sh., G'ofurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2010.
- 1.2. Abdurahmonov Q.X., V.Imomov. O'zbekistonda mehnat potensialidansamarali foydalanish va uni boshqarish. – T.: “Akademiya”, 2008.
- 1.3. Razzoqov A., Toshmatov Sh., O'rmonov N. Iqtisodiy ta'lumotlar tarixi. – T.: “O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti”, 2005
- 1.4. Xolmo'minov Sh.R., Xomitov K.Z. Malakali agrar mehnat bozorining shakllanishi. – T.: “Fan”, 2003.
- 1.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi” mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: **Iqtisodiyot. – 2012.**

##### **2. Ilmiy-amaliy anjumanlar ma'ruza to'plamlari**

2.1. “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mehnat munosabatlarini takomillashtirish masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani tezislar to’plami. – T.: “Iqtisodiyot”, 2010.

### **3. Doktorlik, nomzodlik va magistrlik dissertasiyalar**

1. Arabov N.U. Mehnat bozori infratuzilmasining rivojlanishi.08.00.10. – “Aholishunoslik va mehnat iqtisodiyoti” ixtisosligi bo’yicha Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertasiyasi. – T.: 2008.

### **V.Davriy nashrlar, statistik to’plamlar va hisobotlar**

- 5.1. “Xalq so’zi” gazetasi 2008-2011 yil sonlari.
- 5.2. “Bozor, pul, kredit” jurnali 2008-2011 yil sonlari.
- 5.3. O’zbekiston iqtisodiyoti jurnali 2008-2011 yil sonlari.
- 5.4. “Iqtisodiyot va ta’lim” jurnali 2008-2011 yil sonlari.
- 5.5. O’zbekiston iqtisodiyoti. Axborot va tahliliy sharh. 2008-2011 yil sonlari.
- 5.6. O’zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. 2008-2011 yil sonlari.
- 5.7. O’zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hisobotlari.

### **VI. Internet saytlari**

- <http://www.prezident.uz> – O’zbekiston Respublikasi Prezidentining veb-sayti.
- <http://www.stat.uz> – O’zbekiston Respublikasi Statistika Qo’mitasi veb-sayti.
- <http://www.ceep.uz> - Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт вазирлиги ҳузуридаги самарали иқтисодий маркази расмий веб сайти.
- <http://www.anons.uz> – Новости Узбекистана.
- <http://www.e-graduate.ru> – Битирувчилар портали.
- <http://www.fundforum.uz> – Фонд Форум расмий сайти.